

Yangi yilingiz muborak bo'lsin!

● Gazeta 1992-yilning 24-iyunidan chiqa boshlagan ● 2022-yil 30-dekabr, №52 (3011)

MILLIY ARMIYAMIZ – YANGI O'ZBEKISTONNING MUSTAHKAM QALQONI!

VATANPARVAR

www.mv-vatanpar

MA'NAVIY-MA'RIFIY, U

ASI



INSONGA E'TIBOR VA SIFATLI TA'LIM YILI

TASHABBUSLAR
QO'LLAB-
QUVVATLANDI

14

O'QUVCHI-
YOSHLAR
BELLASHUVI

16

YANGI YIL
"MEHMONI"
KERAKMI?!

20



MA'RIFATLI ONALAR JAMIYATI

4-sahifa ▶▶



BAYRAMGA MUNOSIB TUHFA

9-sahifa ▶▶



"PARIJ – 2024" SARI ODIMLAR

17-sahifa ▶▶

@ vatanparvar-bt@uamail.uz

t.me/mv_vatanparvar_uz
t.me/mudofaavazirligi

facebook.com/mudofaavazirligi

instagram.com/mudofaavazirligi

youtube.com/c/uzarmiya

Tahririyat
haqida
ma'lumot



Ayyom shukuhi



ЮРТ

ФИДОЙИЛАРИ ФАРЗАНДАРИГА БАЙРАМ СОВҒАЛАРИ ТОПШИРИЛДИ



Янги йилни халқимиз байрамона кайфият билан қаршиламоқда. Юртимизнинг турли ҳудудларида майдонлар, хиёбонлар, дам олиш масканлари безатилиб, болажонлар учун турли кўнгилочар тадбирлар ташкиллаштирилмоқда.

Болажонларнинг чексиз қувончидан эса айём янада тароватли, янада жозибали ўтиши кайфиятни оширади. Айниқса, болажонлар Қорбободан совға олганда, уларнинг шодлигига шодлик қўшилади.

Ўзбекистон Республикаси Мудофаа вазирлигида хизмат қилиб, мамлакатимиз хавфсизлиги, ҳудудий яхлитлиги ва сарҳадларимиз дахлсизлигини асраш йўлида жонини фидо қилган ҳарбий хизматчиларнинг фарзандларига Янги йил совғалари топширилди.

Мудофаа вазирининг ўринбосари полковник Ҳамдам Қаршиев барча шарафли бурч эгаларини, уларнинг оила аъзоларини, бутун халқимизни кириб келаётган Янги йил билан табриклади. Бу каби байрам тантаналари барча округларда, ҳарбий қисмларда ўтказилаётгани ва бир неча кун давом этишини таъкидлади.

Болажонлар ва мактаб ёшидаги йигит-қизларга совғаларни Қорбобо ҳамда Қорқиз билан биргаликда полковник Ҳамдам Қаршиев ва Ўзбекистон Республикаси Ҳарбий

прокурорининг ўринбосари адлия подполковниги Қаҳрамон Исроилов топширди. Бу йил болажонлар Ўзбекистон Республикаси Президенти, Мудофаа вазирлиги ва Ўзбекистон Республикаси Ҳарбий прокуратурасининг махсус совғаларини қабул қилиб олдилар.

Совғаларни топшириш маросимидан сўнг болажонларнинг шоду хуррамлиги театрлаштирилган томошалар билан давом эттирилди. Қорбобо ва Қорқиз ҳарбий оркестр жамоаси, эртақ ва мультфильм қаҳрамонлари биргаликда болаликнинг сеҳрли оламига тушиб қолган жажжи қалб соҳибларининг бахт ва шодлиги акс этган чехралари катталар учун ҳақиқий Янги йил совғаси бўлди.

Фурсатдан фойдаланиб, совғалар билан кучоғи, шодликдан қалби тўлган болажонларнинг таассуротлари билан ўртоқлашдик. Байрам совғалари олганлар орасида Қодиров Зафар Маъмуржон ўғли:

– Ўх-ўй. Совғаларнинг кўплиги, ажойиблигини қаранг. Опажоним иккимиз бунақасини кутмагандик. У билан Президент совғасини уйда Янги йил кириб келиши арафасида очишга келишиб олдик. Кўринишидан биз учун сюрприз бўлиши аниқ.

Исминов Акмал Фарҳод ўғли:
– Синглим Севинчнинг қувонишини қаранг. Худди орзусидаги совғани олгандек. Ўзим ҳам бир вақтнинг ўзида Президент, мудофаа вазири ва Ўзбекистон Республикаси Ҳарбий прокуратурасининг совғаларини қабул қилиб оламан деб ўйламагандим. Шундай байрамона кайфият улашган барча-барчага миннатдорчилик билдираман. Онажонимнинг қувончдан, эътибордан кўзларида ёш кўрдим. Бу эътибор бизни юртимизга, Президентимизга, тинчлигимиз учун жонини фидо қилган марҳум отамизга муносиб фарзанд бўлишга ундайди.

Асрор РЎЗИБОЕВ,
«Vatanparvar»



Matbuot anjumani

«ВАТАНПАРВАРЛИК ОЙЛИГИ»ДА БИЗНИ НИМАЛАР КУТМОҚДА?



Ўзбекистон Миллий матбуот марказида «Ўзбекистон Республикасида 14 январь – Ватан ҳимоячилари куни ва Қуролли Кучлар ташкил этилганлигининг 31 йиллиги байрамини кенг нишонлашга бағишланган тадбирлар» мавзусида матбуот анжумани бўлиб ўтди. Унда «Ватанпарварлик ойлиги» доирасида ўтказилиши режалаштирилган ташкилий-амалий, ахборот-ташвиқот, ҳарбий-ватанпарварлик ва маънавий-маърифий тадбирлар ҳақида маълумотлар берилди.

Матбуот анжуманида мудофаа вазирининг ахборот сиёсати масалалари бўйича маслаҳатчиси – матбуот котиби полковник Отабек Йўлдошев, Мудофаа вазирлиги Тарбиявий ва мафкуравий ишлар бош бошқармаси масъул офицери полковник Мехридин Қўчқоров спикер сифатида иштирок этиб, республика ахборот агентликлари ва оммавий ахборот воситалари вакилларининг мавзу бўйича саволларига жавоб берди.

Хусусан, вазирлик масъул шахслари томонидан Ватан ҳимоячилари кунини муносиб кутиб олиш ва умумхалқ байрами сифатида кенг нишонлаш мақсадида ўтказилаётган байрам тадбирларини оммавий

ахборот воситаларида кенг ёритиш учун яратиладиган шарт-шароитлар, Қуролли Кучларни ислоҳ этиш ва ривожлантириш мобайнида қўлга киритилган ютуқлар, ҳарбий хизматчиларни ижтимоий ҳимоя қилиш масалаларида амалга оширилган ташаббуслар, шунингдек, «Ватанпарварлик ойлиги»да режалаштирилган тадбир ва кўрик-танловлар ҳақида маълумотлар берилди.

Ойлик давомида ўқувчи-ёшларни ҳарбий касбга йўналтириш, уларни ҳарбий-ватанпарварлик руҳида тарбиялаш мақсадида «Мард аскар – ёшларга намуна!» шиори остида ҳарбий-ватанпарварлик тадбирлари, ҳарбий қисм ва муассасаларда очик

эшиқлар куни, Тошкент шаҳри ва вилоятлардаги музейларга экскурсиялар, «Аскар оналарини шарафлаймиз», «Менинг акам – Ватан ҳимоячиси» мавзуларида маънавий-маърифий тадбирлар, «Қаҳрамонлар номи барҳаёт!» мавзусида давра суҳбатлари, «Маънавият қарвонлари» ташрифини амалга ошириш, умумтаълим мактабларида «Ватанпарварлик дарслари»ни ўтказиш каби тадбирлар режалаштирилган.

Шу билан бирга, турли танлов ва беллашувлар, жумладан, (ўқувчи-ёшлар ўртасида) «Посбониман муқаддас юртнинг» мавзусида иншо ва шеърли асарлар танлови, «Менинг армиям – менинг фахрим!» мавзусида «Энг яхши тасвирий санъат аса-

ри» танлови, (ҳарбий хизматчилар, маҳаллий аҳоли ва ёшлар ўртасида) ҳарбий-маъмурий сектор раҳбарининг соврини учун «Амир Темур ўғлонлари», «Жалолиддин Мангуберди ворислари», «Тўмарис издошлари» кўрик-танловлари, спортнинг оммавий турлари бўйича спорт мусобақалари, ҳарбий-ватанпарварлик фестивалларини ташкил этиш кўзда тутилган.

Мазкур тадбирларда мамлакатимизнинг ҳар бир фуқаросига Ватан ҳимоячилари куни байрамининг аҳамияти, тинчлигимиз ва осойишталигимизни сақлашда, айниқса, ёшларни ватанпарварлик руҳида тарбиялашда Ўзбекистон Республикаси Қуролли Кучларининг ўрни ва аҳамиятини тушунтириш, шунингдек, мазкур тадбирларда фан, маданият ва санъат арбоблари ҳамда спортчилар, кенг жамоатчилик вакиллари, ҳарбий хизматчилар ва фахрийларнинг фаол иштирок этиши белгиланган.

**Мудофаа вазирлиги
Ахборот ва оммавий
коммуникациялар
департаменти**

Qaror va ijro

ЎЗБЕКИСТОН – ТУРКИЯ ҲАРБИЙ ҲАМКОРЛИГИ ЯНГИ БОСҚИЧДА

Ўзбекистон билан Туркия ўртасидаги сиёсий, савдо-иқтисодий, инвестициявий, транспорт-коммуникация, илм-фан, маданият ва бошқа соҳалардаги ўзаро ишонч ва ҳурматга асосланган ҳамкорлик изчил ривожланиб бормоқда.

Мамлакатларимизни муштарак тил ва тарих, ўхшаш маданият ва анъаналарга асосланган яқин дўстлик ва қардошлиқ муносабатлари бирлаштириб туради. Туркия Ўзбекистон мустақиллигини биринчи бўлиб тан олгани ҳам ана шу қардошлиқнинг юксак ифодаси бўлган эди. 1996 йили мамлакатларимиз ўртасида Абадий дўстлик ва ҳамкорлик тўғрисидаги шартнома имзоланган. 2017 йил октябр ойида Президентимиз Шавкат Мирзиёевнинг Туркияга илк давлат ташрифи чоғида мамлакатларимиз ҳамкорлигини стратегик шериклик даражасига кўтарилган қўшма баёнот имзоланди.

Ўтган қисқа вақт давомида алоқалар стратегик шериклик даражасига чиқди. Мамлакатларимиз ўртасида ўзаро манфаатли дўстона муносабатлар изчил ривожланмоқда. Барча даражадаги мулоқотлар кескин фаоллашди. Ўзбекистон ва Туркия халқаро ташкилотлар доирасида бир-бирини доимий қўллаб-қувватлаб келмоқда.

Туркия Президенти Ражаб Тоййиб Эрдоғоннинг жорий йил март ойида юртимизга ташрифи чоғида икки мамлакат ҳукуматлари, вазирлик ва идоралари даражасида кўп қиррали Ўзбекистон – Туркия ҳамкорлигини янада кенгайтиришга қаратилган 9 та ҳужжат имзоланди. Ҳарбий ҳадли ҳукуматлараро битим ана шулардан бири эди.

Жорий йилнинг 5 декабрь куни «Ўзбекистон Республикаси Ҳукумати билан Туркия Республикаси Ҳукумати ўртасида ҳарбий ҳадли битимни ратификация қилиш ҳақида»ги Ўзбекистон Республикасининг қонуни қабул қилинди. Ҳарбий ҳадли битимда ҳар иккала томоннинг суверенитети ва тенглигига ўзаро ҳурмат асосида турли ҳарбий соҳалардаги ҳамкорлик томонларнинг умумий манфаатларига ва иқтисодий самардорлигига ҳисса қўшиши, Ўзбекистон – Туркия ўртасидаги мавжуд дўстона муносабатлар миллий қонунлар, халқаро қоидалар ва битимлар асосида юксалиши зарурлиги қайд этилган.

Ҳарбий ҳадли битимда қайд этилганидек, икки давлат ҳарбий хизматчилари ўртасида ҳамкорликдаги қўшма ўқув машғулотлари ва ўзаро тажриба алмашиш, ҳарбий таълим соҳасида маҳорат дарсларини ўтказиш ҳамда икки томоннинг наشريётларида илмий ва бошқа мақолаларни чоп этиш, ҳарбий тиббиёт ва соғлиқни сақлаш хизматлари, коммуникация, электроника, ахборот тизимлари ва киберхавфсизлик, картография ва гидрография, ҳарбий илмий ва технологик тадқиқотлар соҳаларида маълумот ва тажриба алмашинуви йўлга қўйилади.

**Катта лейтенант
Ислонжон ҚўЧҚОРОВ**



Konferensiya



ПАРВОЗЛАР ХАВФСИЗЛИГИГА БАҒИШЛАНДИ



Ҳаво ҳужумидан мудофаа қўшинлари ва Ҳарбий ҳаво кучлари қўмондонлигида «Парвозлар хавфсизлиги» мавзусига бағишланган конференция бўлиб ўтди. Кун аввалида Яшнобод туманидаги «Ҳарбий авиаторлар» ёдгорлиги пойига гулчамбарлар қўйилиб, хизмат вазифасини бажариш чоғида қаҳрамонларча ҳалок бўлган ҳарбий учувчилар хотираси ёд этилди.

Конференцияда айтилганидек, миллий армиямизни тезкор, ихчам ва ҳаракатчан қиёфага келтириш

бўйича тизимда кенг қўламли ислохотлар амалга оширилмоқда. Натижада қўшинлар бошқарув тизимини

такомиллаштириш, рақамли технологиялардан кенг фойдаланиш каби масалалар устувор этиб белгиланди ва босқичма-босқич амалиётга жорий этилаётир.

Мудофаа вазирининг ўринбосари – Ҳаво ҳужумидан мудофаа қўшинлари ва Ҳарбий ҳаво кучлари қўмондони генерал-майор Аҳмад Бурханов сўзга чиқиб, парвозлар хавфсизлигига доир муҳим масалаларга тўхталиб ўтди. Хусусан, ҳарбий учувчилар маҳорати, уларнинг хизмат вазифасига бўлган масъулияти, юқори

қўмондонлик томонидан юклатилган вазифалар ижросининг жойларда адо этилиши ва ҳарбий аэродромлар ҳолатига алоҳида тўхталиб ўтди.

– Ватанимиз ҳаво сарҳадларини ҳимоя қилишда ҳарбий авиация асосий вазифани бажаради, – дейди подполковник Иброҳим Усмонов. – Учиш аппаратларининг ҳаводаги ғалабаси бевосита ерусти таъминот воситаларининг фаолияти билан узвий боғлиқ. Ҳарбий авиацияда парвозлар хавфсизлигини таъминлаш, шунингдек, учуш аппаратлари жанговар вазифасини мукамал бажаришида алоқа, радиотехник таъминот, радиолокация ва радионавигация воситаларининг роли беқиёс. Миллий армиямиз ҳаво авиацияси жаҳон талабларига мос келадиган ана шундай замонавий воситалар билан жиҳозланган. Албатта, бу юқори қўмондонлик томонидан зиммамизга юклатилган вазифаларни бажаришимизда, парвозларни юқори сифат билан хавфсиз таъминлашимизда муҳим аҳамият касб этади.

**Катта лейтенант
Исломжон ҚҶҶОРОВ,
«Vatanparvar»**

Tanlov

МАЪРИФАТЛИ ОНАЛАР ЖАМИЯТИ

Мудофаа вазирлиги хотин-қизлар масалалари бўйича бошланғич ташкилоти республикада «Энг намунали бошланғич ташкилот» деб топилди.



Президентимиз маърузаларидан бирида «Маърифатли жамиятни маърифатли оналарсиз қуриб бўлмайди» деган ғояни илгари сураётган эканлар, аёлнинг нафақат оила ва жамиятдаги, балки миллат ва Ватан тақдиридаги ўрни беқиёслигини таъкидлади. Давлат раҳбари бошчилигидаги ислохотлар асосида мамлакат ҳаётининг барча жабҳаларида хотин-қизларнинг фаоллигини ошириш, уларнинг таълимига кўмаклашиш, тадбиркорлик ташаббусларини янада қўллаб-қувватлаш, аёлнинг чинакам бахтли яшаши учун интеллектуал ва маънавий юксалиши, касбий ҳамда оилавий мажбуриятларини ҳамоҳанг тарзда бажариши каби имкониятлар йўли-

да кенг қамровли давлат сиёсати амалга оширилмоқда.

Амалга оширилган энг салмоқли ишлардан бири «Йил аёли» миллий танлови, шунингдек, Оила ва хотин-қизлар давлат қўмитасининг «Энг намунали бошланғич ташкилот» ҳамда «Энг фаол тадбиркор аёл» кўрик-танловлари бўлди. Йил охирида бораётган бир вақтда бундай танловларнинг бўлиб ўтиши аёлларга бўлган эътиборнинг нечоғлиқ юқорилигини кўрсатиб берди.

Танловдаги бир қанча номинациялар бўйича Ўзбекистон бўйлаб ўзининг фаоллиги, ҳаракатчанлиги, ўзбек аёлларининг бандлигини, ижтимоий ва маънавий ҳаётини ях-

шилашга ўз хиссасини қўша олган етакчи аёллар тақдирланди. Улар орасида хотин-қизлар аҳволини яхшилаш, ҳуқуқ ва манфаатларини ҳимоя қилишда фидойилик билан меҳнат қилаётган бошланғич ташкилотлар раислари ҳам аниқланди. Бу танлов уч босқичда ташкил этилиб, туман босқичларида жами 4 160 та, Қорақалпоғистон Республикаси, вилоятлар ва Тошкент шаҳри босқичида 1 972 та бошланғич ташкилот иштирок этди. Республика босқичига тақдим этилган 126 нафар номзоднинг ҳужжатлари низом шартлари асосида ўрганиб чиқилди.

«Энг намунали бошланғич ташкилот» номинацияси бўйича му-

кофотни Мудофаа вазирлиги хотин-қизлар ва ҳарбий хизматчиларнинг оилалари билан ишлаш бўлими бош мутахассиси Зулфия Мансурова қабул қилиб олди. Бу ютуқ ҳарбий хизматчиларнинг оилалари билан ишлаш жараёнида аёлларга бўлган кўмак, уларнинг саломатлигини мустаҳкамлаш, хотин-қизлар бандлигини оширишга қаратилган ишларининг самараси, албатта.

Юртимиз бўйлаб ўтказилган бу танлов фаол аёллар учун яна бир тажриба мактаби бўлди.

Тадбир якунида элимиз суйган санъаткорлар томонидан куй-қўшиқлар ижро этилди.

Муаттар МЕЛИЕВА

Quvnoqlar va zukkolar



**ХАЖВИЙ ҲАРБИЙ ҲАНДОМАЛАР
ҚУРОЛЛИ КУЧЛАР АКАДЕМИЯСИ САХНАСИДА**

Қуролли Кучлар академиясида Мудофаа вазирлиги тизимидаги ҳарбий қисм ҳамда олий ҳарбий таълим муассасалари ўртасида ҳар йили анъанавий тарзда ўтказиб келинаётган «Қувноқлар ва зукколар» жамоавий ўйинлар танловининг якуний босқичи бўлиб ўтди.

Ҳарбий хизмат жозибдорлигини ошириш, Ватан ҳимоячиларининг бадиий, ижодий ва интеллектуал салоҳиятларини юксалтириш, шахсий таркибнинг бўш вақтини мазмунли ўтказиш ва маданий ҳордиқ чиқаришларини таъминлашга қаратилган танловда намойиш этилган саҳна кўринишлари кўп бора томошабинларнинг олқишига сазовор бўлди. «Миллий армиямиз – Янги Ўзбекистоннинг мустаҳкам пойдевори» шиори остида ташкил этилган танлов иштирокчиларини шаффоф ва холисона баҳолаш мақсадида давлат ва жамоат ташкилотлари ҳамда ижодий уюшмалардан малакали мутахассислар ҳакамлар ҳайъати таркибига жалб этилди.

Ҳақиқатлар қадимдан ҳажв орқали ифода қилингани ҳаммамизга маълум. Бу жиҳатдан жамоаларнинг чиқишлари мақтовга арзигулик. Фақат ўринли танқидларни тузатишга ҳарбий хизмат давомида ўзлари ҳам жиддий ҳаракат қилишса бўлгани. Чиқишларнинг айрим ўринлари «бачкана» муносабатларга ишора қилса, баъзи жойларида командирларни танқид қилган саҳна кўринишларига гўё ростлигини тасдиқлаётгандек томошабин бўлиб ўтирган раҳбарларнинг ўзлари қўл ташлашиб кулишди. Нима бўлганда ҳам танлов иштирокчиларни ҳам, томошабинларни ҳам ўзларини яна бир бор тафтиш қилиш имконини берди.

– Очиғини айтишим керак, ушбу танловга жиддий тайёргарлик кўрган эдик. Аммо бошқа жамоалар биздан ҳам кўпроқ изланишган, ҳаётини воқеаларни топа олишган экан. Мухими, қайси ўринни эгаллаш эмас. Саҳна кўринишларини томоша қилиб, ўзим учун жуда кўп хулосалар қилдим. Воқеалар тиғиз замонда яшайпмиз, шунинг учун бўлса керак одамлар орасида стресс, асаббuzарлик, тажанглик кўп учрайди. Муаммоларнинг аксариятини ҳажв, юмор билан ҳал қилиш мумкин экан. Юрагингизда зиғирча гина қолмаса, беғубор кулги ҳар қандай мушкулга ечим топиб бера олишига ишончим ортди, – дейди Ўзбекистон олий ҳарбий авиация билим юрти курсанти Рамзиддин Усмонов.

Ҳарбий округлар ва қўмондонликларнинг ҳарбий қисм ва муассасаларидан иборат 7 та, олий ҳарбий таълим муассасаларининг 4 та жамоаси беллашган баҳслар натижалари эса қуйидагича бўлди.

Ҳарбий қисм ва муассасалар орасида Тоифаланган объектларни қўриқлаш қўшинлари қўмондонлиги 1-, Шарқий ҳарбий округ 2-, Ҳаво ҳужумидан мудофаа қўшинлари ва Ҳарбий ҳаво кучлари қўмондонлиги жамоаси эса 3-ўринни эгаллади. Олий ҳарбий таълим муассасалари орасида Қуролли Кучлар академияси 1-, Чирчиқ олий танк қўмондонлик-муҳандислик билим юрти 2-, Ўзбекистон олий ҳарбий авиация билим юрти жамоаси эса 3-ўринга муносиб топилди.

«Энг яхши актёр» номинациясини эса кичик сержант Бигиз Кашкенбаев ҳамда Ахборот коммуникация технологиялари ва алоқа ҳарбий институти курсанти Акбар Абзалбеков қўлга киритди.

**Капитан Азиз НОРҚУЛОВ,
«Vatanparvar»**

E'tirof



«ТўМАРИС ИЗДОШЛАРИ»



III darajali serjant Olim BERDIYEV

Мамлакатимизда ҳарбий хизматчи аёлларни ҳар томонлама қўллаб-қувватлаш, уларнинг ўрни ва ролини ошириш, истеъдодларини намоён қилишлари бўйича кенг кўламли ислохотлар амалга оширилмоқда.

Оила ва хотин-қизлар давлат қўмитаси томонидан Ўзбекистон Республикаси куч тузилмаларида фаолият юритаётган ҳарбий хизматчи аёллар ўртасида соғлом рақобат муҳитини шакллантириш мақсадида «Ватан меҳри юрагимда» шиори остида «Тўмарис издошлари – 2022»

танлови ўтказилган. Унда Мудофаа вазирлиги жамоаси тенгсиз эканлигини намоён этган ҳолда, биринчи ўринга муносиб кўрилган эди.

Қуролли Кучлар давлат музейида бўлиб ўтган тадбирда «Тўмарис издошлари – 2022» ғолиблари тақдирланди. Унда мудофаа вазирининг

ҒОЛИБЛАРИ ТАҚДИРЛАНДИ

ўринбосари полковник Ҳамдам Қаршиев мусобақа ғолибларини ташаккурнома, қимматбаҳо эсдалик совғалари ҳамда Оила ва хотин-қизлар давлат қўмитаси томонидан ғолиблар учун ажратилган пул мукофотларини ўз эгаларига топширди.

Шундан сўнг, мудофаа вазирининг ўринбосари сўзга чиқиб, ғолибларни табриклади. Булар афсонавий Тўмарис каби ўз ватанпарварлигини намоён этган лобар, мафтункор, оқила ҳарбий хотин-қизлар эканини алоҳи-

да таъкидлади. «Улар эркак ҳарбий хизматчилардан асло қолишмайди. Яқинда Ўзбекистон Республикаси Президентининг тегишли қарорига асосан, «Тўмарис» кўкрак нишони таъсис этилди. Келгусида ғолиб ҳарбий қизлар, ходимлар ва ишчи хизматчилар ушбу кўкрак нишони соҳибаси бўлишларига тилақдошман», – дея ўз сўзини якунлади.

Шерзод ШАРИПОВ,
«Vatanparvar»

Milliy armiyamiz – Yangi O'zbekistonning mustahkam qalqoni!

Ахборот коммуникация технологиялари ва алоқа ҳарбий институти жамоаси янги йил арафасида янги кунни йўқловдан бошлади. Улар Тошкент вилоятининг Зангиота тумани Амир Темур маҳалласида яшовчи 85 ёшли Зинаида Қодирова хонадониди бўлдилар. Онахон ёшлик йиллари, кўрган-кечирганлари, ўтган умри давомида чиқарган хулосаларини ёшлар билан баҳам кўрди.

Етмиш йилдан ортиқ умрини юртимизда ўтказиб, тиббиёт ривожига муносиб ҳисса қўшган, минглаб одамларнинг соғайишига хизмат қилган умр йўли кўпчилик учун ибратли воқеаларга бой эди. Онахонга эхтиром билан совға-саломлар ва Янги йил билан қутлов ёрлиги топширилгач, шифокор кўригидан ўтказилди. Ҳарбий хизматчилар ва курсантлар томонидан куй-қўшиқлар ижро этилиб, йиғилганларнинг кайфиятига байрамона руҳ бахш этди.

Шундан сўнг Мудофаа вазирлиги Маънавият ва маърифат маркази, Ахборот коммуникация технологиялари ва алоқа ҳарбий институти ҳамда Тошкент ҳарбий прокуратураси ҳамкорлигида «Ғалаба боғи» ёдгорлик мажмуасида маънавий-маърифий тадбир ташкил қилинди. «Миллий армиямиз – Янги Ўзбекистоннинг мустаҳкам қалқони!» шиори остида ўтказилган тадбирда олий ҳарбий таълим муассасаси ҳарбий хизматчилари ва уларнинг оила аъзолари ўтмиш ва бугунги кун билан юзма-юз келдилар.

Рассомчиликка қизиқиши кучли, қобилиятли ўқувчилар ўзларининг Ватан ва унинг ҳимоячилари ҳақидаги тасаввурларини суратларда ифода қилишга киришиб кетишди.

Қолган ҳарбий хизматчилар ва уларнинг оила аъзолари ҳамда Тошкент вилоятининг Зангиота туманида жойлашган «Ватан таянчи» болалар ва ўсмирлар ҳарбий-ватанпарварлик ҳаракати отрядларига аъзо ўқувчилар иштирокида шоирлар ва театр актёрлари, Мудофаа вазирлиги фахрийлари билан учрашув ўтказилди.

Мудофаа вазирлиги Маънавият ва маърифат маркази бошлиғи полковник Валижон Дадажонов, Ахборот коммуникация технологиялари ва алоқа ҳарбий институти бошлиғининг ўринбосари подполковник Файзулло Шерматов, Ёзувчилар уюшмаси аъзоси, шоир Мирзо Карим, шоир ва актёр Анвар Нишонов, «Турон» ҳарбий театри актёри Эркин Бозоров ҳамда Мудофаа вазирлиги фахрийлар кенгаши аъзолари сўзга чиқиб, Мудофаа вазирлигида амалга оширилаётган ислохотлар, қўлга киритилаётган ютуқлар, уларнинг бадиий адабиёт ва санъатдаги ифодаси тўғрисида гапириб бердилар.

Мудофаа вазирлиги Махсус авария тиклаш бошқармаси «Импульс» жамоаси томонидан ижро этилган куй-қўшиқлар йиғилганларнинг ватанпарварлик туйғуларини янада оширди. Тадбир сўнгида расм чизиш бўйича «бел боғлашган» ўқувчиларнинг энг саралари диплом ва совғалар билан тақдирланди.

ЎТМИШ ВА БУГУН БИЛАН
ЮЗМА-ЮЗ

Muallif suratga olgan



«Шон-шараф» давлат музейига экскурсия эса иштирокчилар кўз ўнгида юртдошларимизнинг Иккинчи жаҳон уруши даврида кўрсатган жасорат ва фидойиликлари, машаққат ва қийинчиликларини намоён қилиб, уларни

Ватан равнақи, осовишталиги йўлида бундан-да кучлироқ ғайрат, шижоат кўрсатишга ундади.

Капитан Азиз НОРҚУЛОВ,
«Vatanparvar»

Xalq va armiya

Ёш авлодни ҳарбий-ватанпарварлик руҳида тарбиялаш, ҳарбий касбга қизиқишини ошириш, қалби ва онгига Ватан ҳимояси шарафли ҳамда муқаддас бурч эканини чуқур сингдириш орқали миллий ғоя ва Ватанга садоқат руҳида тарбиялаш, Қорақалпоғистон Республикасининг қадимий тарихи, маданияти, Ватанимизнинг мустақиллиги ва равнақи йўлида мардларча курашган миллий қаҳрамонлар билан фахрланиш туйғусини юксалтириш, миллий армиямиз қудрати ва салоҳиятига бўлган ишончни янада кучайтириш, Иккинчи жаҳон уруши йилларида фашизм устидан қозонилган Буюк Ғалаба учун мардларча курашган юртдошларимизнинг номини абадийлаштириш мақсадида Нукус шаҳрида бунёд этилган «Ватанпарварлар боғи»да ватанпарварлик фестивали ўтказилди.



Қуроли Кучларимиз ташкил этилганининг 31 йиллиги байрами муносабати билан «Миллий армиямиз – Янги Ўзбекистоннинг мустақам қалқони!» шиори остида Шимоли-ғарбий ҳарбий округ қўшинлари қўмондонлиги томонидан ташкил этилган тадбирда Қорақалпоғистон Республикасининг шаҳар ва туманларидан ёшлар иштирок этди. Намойишга қўйилган замонавий қурол-аслаҳаларнинг тактик-техник

тавсифи, улардан фойдаланиш қоидалари ҳамда зирҳли техникалар кўргазмаси ёшларда катта таассурот қолдирди. Айниқса, ёшлар фахрий қоровул взводининг қурол ёрдамида ўзгача саф элементлари ҳамда қўл жанги билан кўргазмани чиқишларини завқ билан томоша қилди.

Нукус гарнизони маънавият ва маърифат марказининг ҳарбий оркестри ҳамда Ички ишлар вазирлигига қарашли «Темурбеклар мактаби» ҳарбий академик лицейи ижодий жамоаси томонидан ижро этилган куй ва қўшиқлар қишнинг совуқ кунда илиқлик тафтини

улашиб, барчани рақсга чорлади. Боғ ичида жойлашган «Хотира музейи»га ҳарбий хизматчилар ва ёшлар саёҳати қизиқарли кечди. Экскурсия давомида қорақалпоғистонлик ёшлар турли вилоятлардан келган аскарларга қорақалпоқ халқининг Иккинчи жаҳон урушига қўшган ҳиссаси ҳақида сўзлаб беришган бўлса, аскарлар ўша вақтда фойдаланилган ҳарбий жанговар техникалар тўғрисида маълумотлар билан ўртоқлашди.

Шимоли-ғарбий ҳарбий округ матбуот хизмати

“Vatan bilan ulg`ayar shon-shavkatimiz” tanloviga

Ҳайрат ва ҳавасдан туғилар...

Асқаржон беш яшар, Муроджон тўрт ярим ёш. Бу қўшни болакайлар яқшанба бўлгани учун боғчага боришмади. Оналар телефонлашиб «Болаларимизни очик ҳавога олиб чиқайлик, тўрт девор ичида зеркиб қолишди, ўзимиз ҳам суҳбатлашамиз», деб гапни бир жойга қўйиб, кийимни қалин қилиб, болалар ўйин майдончасига тушиб келишди. Асқаржон билан Муроджон қорни юмалоқлай бошлади. Йўлакдан Қорбобо ва Қорқиз «Салом, болажонлар» деб ўтди. Болалар «Ҳой, Қорбобо!» дейишдию ўйиндан бош кўтаришмади.

Ҳайрон қолдим: қизиқ, болалар Қорбобо ва Қорқизга эътиборсиз бўлишди-я?

Шу пайт йўлакдан уч қатор саф тортиб аскарлар ўта бошлади. Ёқасидаги нишондан артиллериячилар эканини билиб олса бўлади. Болакайларни кузатдим: кўзлари ҳайрат ва ҳавасдан катта-катта очилиб, қор ҳам, ўйин ҳам ўз ўрнида қолди. Аввалига қўлларини чаккаларига қўйиб «чест» беришди. Сўнгра уларнинг ортидан сафга қўшилиб қўлларини силтаб аскарчасига юришга ҳаракат қила бошлади. Аскарларни бошлаб бораётган командир болаларни кўриб завқи ошди, бўлинмага буйруқ берди: «Саф қўшиғини куй-ла!» олдинги қатордаги аскар қўшиқни ёқимли овозда бошлади:

Улуғ мақсад бирла юксалар юртим,
Ватан тинчлигини авайлаш бурчим.
Кимсан дерлар менга, эй ҳимоячи?
Фахр билан дейман: артиллериячи.

Нақарот:
Артиллерия халқаси – оловли халқа,
Душман дош беролмас, юролмас олға,
Қуролим жанговар имкониятларин,
Сафарбар қиларман бор маҳоратим.

Юртимнинг тупроғи мен учун азиз,
Она демайдилар Ватанни бежиз.

Қора ният бўлса, дилингда ишон
Менинг қуролимга, бўласан нишон.


Нақарот:
Артиллерия халқаси – оловли халқа,
Душман дош беролмас, юролмас олға,
Қуролим жанговар имкониятларин,
Сафарбар қиларман бор маҳоратим.

Мустақиллик шони бу маконимда,
Аждодлар ўгити доим ёдимда:
Элларнинг дўстлиги, хурлик, бирдамлик,
Адолат йўлида ростлик, илдамлик.

Оналар болаларининг хатти-ҳаракатларини кулиб кузатиб туришди. Қарашса, сафга қўшилиб ҳарбий қисмгача борадиган. Улар болаларни «ҳай-ҳай»лаб чақиришди. Бутун фикру зикри аскарларга боғланган болакайлар эшитмади. Югургилаб борган оналар фарзандларини бир амаллаб ортга қайтарди. Аскарлар томон интилаётган бу болакайларга қараб, яқин орада Ватан таянчининг бир бўлаги бўласизлар, иншааллох, дедим мамнун бўлиб.

**Салим КОМИЛОВ,
Ўзбекистон Ёзувчилар уюшмаси
Жиззах вилоят бўлими етакчи мутахассиси**

Tarix



АБДУРАЗЗОҚ САМАРҚАНДИЙ — УРУШНИ ТЎХТАТГАН АСКАР

Манбалар ва илмий адабиётларда таъкидланишича, Камолиддин Абдураззоқ ибн Жалолиддин Исҳоқ Самарқандий ҳижрий 816 йили шаъбоннинг 12-куни (1413 йил 7 ноябрь) Ҳирот шаҳрида туғилади.

«Самарқандий» нисбаси бу жанобнинг қаердан эканини кўрсатиб турибди. Бироқ тадқиқотларда бу нисбанинг тавсифи етарлича мукамал акс этмаган экан. Ҳолбуки, Абдураззоқ Самарқандий ҳаёти ва ижоди сал кам олти асрдан бери дунё олимлари эътиборини тортиб келади.

АСРЛАРГА ЧЎЗИЛГАН ТАВСИФ

Таниқли шарқшунос олим Асоиддин Ғуринбоев худди шу масалага ойдинлик киритишга уриниб кўради ва ёзади: «Абдураззоқ Ҳиротда туғилганига қарамай «Самарқандий» деган нисба билан шухрат топганлигига сабаб, отаси Жалолуддин Исҳоқнинг асли самарқандлик бўлганлиги ва яна тахмин қилиш мумкинки, бўлажак тарихнависнинг ўзи ҳам бир неча вақтлар Самарқанд шаҳрида яшаб турганлигидир. Жалолуддин Исҳоқнинг Ҳиротга келиб қолиши XIV аср охирида соҳибқирон Амир Темурнинг Мовароуннаҳрдан ташқари мамлакатларга ҳарбий юришлар қилиб, фатҳ қилган ерларига ўз яқин кишиларидан ҳокимлар тайинлаш сиёсати билан боғлиқ бўлганлиги эҳтимолдан холи эмас».

Бошқа тадқиқотчилар ишларида ҳам «Самарқандий» нисбаси таърифи мазкур ўқиганимиздан қарийб фарқ қилмайди. Шундай мужмалроқ ҳолатда бу ижодкорни Булунғур китобига киритишга чоғланиб турибмиз. Бу уриниш балки «Самарқандий» нисбаси тавсифининг бир оз ёришувига кўмаклашар.

ИККИ ҚЎШНИ

Абдураззоқ Самарқандий ва Хожа Убайдуллоҳ Ахрор қадимий Сугднинг бир манзилида кўшни эди. Катта Сугд – Шероз–Кабуд туманига қарашли Булунғур дарёси ёқасида жойлашган Рийун экинзори Хожанинг вақф мулклари рўйхатида келтирилади.

Шарқий тарафининг баъзи жойлари амирлар улуги, нақиблар ифтихори шавкатли амир Бармидийнинг қизи муаззам ва мукаррам жаноб Хотун Хонзодабегимга қарашли мулк мимас, кутблар кутби ва мусулмонлар раҳбари, ҳодийлар йўлбошчиси ҳазрат Носириддин Убайдуллоҳ вақф мулкларидан бири Шакар қишлоқ;

Ғарби омма йўли, Тудихолажон ва Абдураззоқ Самарқандийга тегишли ерлар;

Шимоли Тудихолажонга оқувчи омма ариғи, Кепакхон тийул қилган қадимий солиқлардан озод ерлар, Булунғур дарёсидан оқиб чиқадиган омма ариғи;

Жануби масжид, қабристон ва қатновсиз йўл, султонга тегишли омма ариғи, Сиёҳоб ариғи билан чегарадош эди.

XV аср иккинчи ярмида тузилган вақф ҳужжатидаги худди шу маълумотлар Абдураззоқ Самарқандий номини ҳам Шероз (Булунғур) тумани илм ва адаб аҳли рўйхатига киритишимизга сабаб бўлди. Балки Тўтихолажон билан ёнма-ён бу ерлар Абдураззоқ Самарқандий хонадонига тегишли меросий мулкдир. Мазкур мавзе бугун ҳам тарихий Тўтихолажон номи билан сақланиб турибди.

Вақф ҳужжатидаги маълумот ортдан шундай мулоҳазалар ҳаёлимизни чулғаб ола бошлади...

САОДАТЛИ ХОҚОН ВА АБДУРАЗЗОҚ САМАРҚАНДИЙ ХОНАДОНИ

Соҳибқирон Амир Темур 1397 йили кичик ўғли Шоҳрух мирзони Хуросон ҳукмдори этиб тайинлайди. Саодатли хоқон Шоҳрух Ҳиротни пойтахт этиб танлайди ва умрининг охиригача шу ерда туриб давлатни бошқаради. У албатта, ишончли ходимлари билан бирга Ҳиротга борганди. Абдураззоқ Самарқандий ва Мирхонд (XV) уларнинг орасида Жалолиддин Исҳоқ Самарқандий бўлганини таъкидлайди. У Шоҳрух саройидаги ўша ишончли мулозимлардан эди. Сўнгра кўп йиллар унинг кўшини ўрдасида имомлик ва қозилик мансабида фаолият олиб боради.

ИЛМ ЙЎЛИ ВА МУАРРИХ

Абдураззоқ Самарқандий Ҳирот мадрасаларида таълим олади. Уша пайтларда бу шаҳарда илм толиблари таҳсили учун қулай шароитлар мавжуд эди. У тафсир, ҳадис, фикҳ илмлари ҳамда тарих ва тил-адабиёт фанлари бўйича замонасининг етук олими бўлиб етишади. Алишер Навоий уни яхши танирди. У билан урчишиб сўхбатлар қилган. Шоирларнинг нафис мажлисларига бағишланган таъкирасида Абдураззоқ Самарқандий бир қанча илмлар билимдони бўлгани ҳақида: «Хуш муҳовара киши эрди. Зоҳир улумин такмил қилиб эрди ва фазлиёти ҳам яхши эрди. Хусусан, тирих илмиким, анда мусаннифоти бор ва машҳурдир. Ва ҳар киши бу фанда унинг маҳоратин билай деса, ўз тарихидин била олур», – деб ёзади.

Абдураззоқ Самарқандий мадрасаларда тиришқоқлик билан илм эгаллаб, олимлик даражасига эришади. Отаси вафотидан сўнг, ҳижрий 841 йили (1437–1438) темурийлар саройига хизматга олинади. У қози Азудиддиннинг араб тили грамматикасига оид «Рисолайи Азудийя» номи асарини шарҳлайди ва бу рисолаи Шоҳрухга бағишлаганини асар дебодасида алоҳида таъкидлаб кўрсатади. Олимлар мажлисида рисола дебодасини ўзи ўқиб беради. Саодатли хоқон Шоҳрух мажлисида ёш илм толиби Абдураззоқдан баъзи масалаларни сўраб имтиҳон қилади ва жавобларидан кўнгли тўлиб, уни сарой хизматига олади. Бу воқеа тўғрисида унинг ўзи ёзиб қолдирган: «Баъзи муҳамликларни сўраб билгач, аъло ҳазрат уламолар таҳсинида кўп мақтов сўзларни айтди. Ушбу мажлисида: «Отаси мавлоно Исҳоқ каби, Абдураззоқ ҳам бизга мулозимлик қилсин. Мол-ҳоли ва оиласи билан олий даргоҳ қарамоғига кирсин. Илмларнинг

нозикликлари ва мафҳум нарсаларнинг ҳақиқатларидан нима лозим ҳамда зарур бўлса ва ўзи яхши билса арзга етказиб турсин», – деган фармон содир бўлди».

Бу илм хосияти эди. Илм йўли ҳамиша инсонни олий манзилларга етказган, қалбга нажот кўргони бўлган. Банданинг Ҳақ назаридаги мартабаси ундан ҳосил бўлади.

УРУШНИ ТЎХТАТГАН АСКАР

Абдураззоқ Самарқандий эллик ёшгача (1447) аввал Шоҳрух ва сўнгра тахтга ўтирган бошқа темурийлар саройида давлат ишларида хизмат қилди. Улар ўртасидаги тахт, мулк талашув курашларида ҳам иштирок этади.

Шундай курашларнинг бирида Абул Қосим Бобурнинг лашқари сафида Самарқандни фатҳ этиш учун боради. Қирқ кунлик қамалда Абу Саид мирзо аскарлари ва шаҳар аҳолиси уларга қаттиқ қаршилиқ кўрсатади. Ҳолдан тойдирувчи узоқ жанглардан сўнг сулҳга келишлади ва бу жараёнда Абдураззоқ Самарқандий ҳам Абул Қосим Бобур томонидан тинчлик яловин кўтарган ишончли вакил бўлиб қатнашади. Унинг иштироки султон Абу Саид мирзода яхши таассурот қолдиради. Шу тариқа икки ўртада тинчлик битими ўрнатилиб, ҳижрий 859 йили муҳаррам ойининг тўртинчи куни (1454 йил 25 декабрь) Ҳирот кўшини ортага қайтади ва Ҳиротга жўнайди. Бу жангда Абдураззоқ Самарқандий урушни тўхтатган аскар бўлиб иштирок этганди. У аслида темурийлар саройида ҳамиша тинчлик ўрнатувчи Аскар – элчи бўлиб хизмат қилганди.

ИЛМ ВА ХОНАДОН

Абдураззоқ Самарқандий қироат илмида машҳур Шайхулислом Жазарийдан таълим олади ва бу фанни ҳам маромига етказиб эгаллайди. У ёзади: «У жаноб қайси шаҳар ва вилоятга ташриф буюрса, замона олимлари ва шаҳарлар фозиллари шогирд бўлиб, илмидан фойдалангани билан фахрланарди. Каттаю кичик фарзандларини у улугнинг мажлисига ҳозир қиларди. «Саҳиҳи ситта» қироатни эшитишни шарофатли ва табаррук ҳисоблардилар. Бу фақирнинг отаси Аллоҳ раҳмат қилгур, мавлоно Жалолиддин Исҳоқ «Саҳиҳайн»дан у жаноб шайхга имтиҳон топширган ва ўз фарзандлари мавлоно Шарифиддин Абдуқаҳҳор, мавлоно Афиғиддин Абдуваҳҳоб ва бандайи камина Абдураззоқни у мажлисга ҳозир қилиб, ижозат олган эди. Аллоҳ таоло уни хайрли мукофот билан тақдирласин».

Мавлоно Жалолиддин Исҳоқ ҳовлисида Илм хонадонини вужудга келтирганди. Унинг барча фарзандлари илм билан шарафланганди. Алишер Навоий ҳазратнинг ўғилларидан бири мавлоно Абдуқаҳҳор ҳақида куйидаги қизикарли маълумотни беради:

«Донишманд киши эрди. Ҳирий шаҳрининг мутаайин хуш таъбларидин эрди. Мавлононинг ҳаёли кимёгарликка тушиб кўп нима зое қилди ва ҳеч нима ҳосил қила олмади.

Кўп ўт пуфлагандин модда қулоғи сари иниб, кар бўлуб эрди. Аммо хўб абёти бор эрди. Мир Хусравнинг жаво-

бида бу матла анингдурким: Рашкам ояд он чи бар дилҳо хаданги ёр кард Тийри уро ғайр хўрду дар дили ман кор кард.

Мазмуни: Ёрнинг дилларга отилган ўқидан рашким келар, Ўзгага теккан ўқи, менинг қалбим яра қилар.

НИЯТ

Ўша ниятини муаррихнинг ўзи айтсин... «Бу фақир, отам одат қилган йўлдан юриб, султонлик ва халифалик, дунё ва дин мадақкори, Аллоҳ ўз мағфиратига чўмдиргур ҳазрат саодатли хоқон мирзо Шоҳрухнинг ҳумоюн мажлисида узоқ муддат мулозимлик қилганим ва нур сочувчи офтоб шуъласида зарра янглиғ жавлон урганим туфайли «Матлаи саъдайн ва мажмаи баҳрайн» китобининг иккинчи ярмида охирадта Тангри ёрлақатур ҳазрат саодатли хоқон ва унинг шухратли авлоди, салтанатга дахлдор хеш-ақраболари аҳволи, бошқа волийлар ва азизлар ҳолатларини баён этиш ҳамда «инъом қилувчига шукр қилиш вожибдир» ҳукмига кўра, иззату икром, эҳсонлари шукрию инъомлари дуосини адо этиш, саодат ёрлиқ қилса, Эрону Турон ва ақсар жаҳон аҳволини бу бахтиёр замон (Хусайн Бойқаро тахтга ўтирган 1470 йиллар)га қадар айтиб ўтишни истадим».

САОДАТЛИ ЮЛДУЗ...

Бизга қадар Абдураззоқ Самарқандий ижодий меросидан ўзининг ўша эзгу нияти – «Матлаи саъдайн» ва «Ҳиндистон сафари достони ва у ер ажойиблари шарҳи, ғаройиблари баёни» асари этиб келган. Яна бир машҳур муаррих Ғиёсиддин Хондамир замондоши Абдураззоқ Самарқандий бир неча асар ёзганини таъкидлайди. Бироқ уларнинг орасидан фақат «Матлаи саъдайн ва мажмаи баҳрайн» асари номини зикр этади. Унинг «Рисолайи шарҳи Азудийя» асари қўлёзма нусхалари тўғрисида ҳозирча маълумотлар топилгани йўқ.

Таниқли шарқшунос олим ва таржимон домла Асоиддин Ғуринбоев «Матлаи саъдайн ва мажмаи баҳрайн» асари биринчи жилдининг – биринчи, иккинчи ва учинчи қисмларини ўзбек тилига ўгириб, нашр эттирди. Турон осмонида «Саодатли юлдуз...» 2008 йилдан қайтадан тўла порлай бошлади. Булунғур тарихи тадқиқотининг ушбу кичик парчаси ҳам унинг ёғдуларидан ҳосил бўлди.

«Ҳиндистон сафари достони ва у ер ажойиблари шарҳи, ғаройиблари баёни» асарини ҳам Асоиддин Ғуринбоев ўзбек тилига ўгириб, асл матн билан бирга нашр этган.

Абдураззоқ Самарқандий ҳижрий 887 йили жумад ул-охир ойида (1482 йил июль-август) Ҳиротда ҳаётдан кўз юмади ва ўша ерда дафн қилинади. Ҳазрат Навоий: «Қабри офоси ёнида Имом Фахрдадир», – деб ёзади.

**Абдусаттор ЖУМАНАЗАР,
ЎзР ФА Абу Райҳон Беруний
номидаги Шарқшунослик
институтининг катта
илмий ходими**

Ijtimoiy himoya



Ўзбекистон деб аталмиш катта ва аҳил оиланинг ҳар бир аъзоси тинч ҳамда фаровон ҳаёт кечириши, тақдирдан рози ҳолда бахтли яшаши учун яратилаётган шарт-шароитлар доирасида, чегараларимиз дахлсизлиги ва осойишталигини кўз қорачиғидек асраб келаётган Ватан посбонлари ҳамда уларнинг оила аъзоларини ижтимоий ҳимоялаш масаласига ҳам алоҳида эътибор қаратилмоқда.

Янги 2023 йилни қаршилаш арафасида Давлат хавфсизлик хизмати Чегара қўшинларининг бир қатор ҳарбий қисмлари шахсий таркиби учун янги хизмат уйлари фойдаланишга топширилиши байрамга муносиб тўхфа бўлди.

Эрта тонгдан Тошкент вилоятининг Зангиота туманида жойлашган ҳарбий қисмда ўз бурчини ўтаётган ўғлонлар ва уларнинг оила аъзолари янгидан барпо этилган хизмат хонадонларини фойдаланишга топшириш маросимида жам бўлди. Чегара қўшинлари масъул офицерлари, фахрийлар ҳамда «Қизил шалола» маҳалла фуқаролар йиғини вакиллари ва ёшлар иштирок этган мазкур тадбир давомида юрт ҳимоячиларига самимий тилаклар билдирилиб, янги хонадонларнинг калитлари тантанали тарзда топширилди.

– Бу йилги байрам биз учун ниҳоятда қувончли келди, – дейди Санобар Азимова. – Боиси, Янги йилни янги хонадонда нишонлайдиган бўлдик. Бундан жуда ҳам хурсандмиз. Хонадонимизда яратилган шароитлар ҳавас қиладиган даражада. Отаналаримиз, яқинларимиз келиб, кўрсатилаётган бундай ғамхўрликдан ниҳоятда мамнун бўлди.



Ўтаётган йил якунида Тошкент вилоятининг Бекобод туманида жойлашган яна икки бўлинма ҳарбий хизматчилари ҳам янги барпо этилган 16 ва 18 хонадондан иборат хизмат уйларида яшаш имконига эга бўлди. Биноларнинг очилишига бағишланган тадбир катта тантанага айланиб, унда ҳарбий хизматчилар ва уларнинг оила аъзолари, вилоят ва туман ҳокимлиги вакиллари, ҳамкор куч тузилмаларининг раҳбарлари ва кенг жамоатчилик вакиллари иштирок этиб, фойдаланишга топширилаётган бинолар бугун мамлакатимизда «Инсон – жамият – давлат» деган эзгу ғоя асосида амалга оширилаётган ислохотларнинг ёрқин ифодаси эканини таъкидлашди. Рамзий боғичлар кесилгач, меҳмонлар қисқа фурсатларда бунёд этилган баланд, ёруғ ва шинам хонадонларни кўздан кечириб, бу ердаги шароитлар билан яқиндан танишди.

Инсон қадри улуғланаётган, барча ислохотлар унинг эркин, фаровон ва бахтли ҳаёт кечириши учун хизмат қилаётган Янги Ўзбекистонда ҳарбий соҳада амалга оширилаётган чора-тадбирлар доирасида юрт ҳимоячилари ва уларнинг оила аъзоларини ҳар томонлама қўллаб-қувватлаш, уларнинг яшаш шароитларини яхшилаш ва янги уй-жойлар билан таъминлаш масаласига шундай юқори эътибор қаратилади экан, сарҳадларимиз посбонлари ҳам ушбу ғамхўрлик ва қулайликлардан руҳланиб, оиласидан кўнгли тўқ ҳолда давлат чегараларини янада масъулият билан кўриқлайди.

Майор Фариди БОБОЖОНОВА
ДХХ Чегара қўшинлари



Uch avlod uchrashuvi

СЕНАТОР ВА ҚҰМОНДОННИНГ ЁШЛАР БИЛАН МУЛОҚОТИ



Жануби-ғарбий махсус ҳарбий округ тасарруфидаги Муборак туманида жойлашган ҳарбий қисмда «Уч авлод учрашуви» бўлиб ўтди.

Унда Мудофаа вазирлиги ҳузуридаги жамоатчилик кенгаши раиси, Ўзбекистон Қаҳрамони, сенатор Содикжон Турдиев, округ қўшинлари қўмондони генерал-майор Зайнобиддин Иминов, Муборак тумани ҳоқими Ақром Арипов, фахрий ҳарбийлар ҳамда туманда

узоқ йиллар самарали меҳнат қилиб келаётган нуронийлар иштирок этди. «Миллий армиямиз – Янги Ўзбекистоннинг мустаҳкам қалқони!» шиори остида ўтказилган мулоқотда ҳарбий хизматчилар, ўқувчи-ёшлар ҳамда туман аҳлидан иборат 500 га

яқин меҳмонлар иштирок этди. Сўзга чиққанлар Қуролли Кучларимизда амалга оширилаётган ислохотлар, ҳарбий хизматчиларимиз эришаётган ютуқлар тўғрисида маълумот берди. Ёшларда шарафли ҳарбийлик касби-га бўлган қизиқишни ошириш мақсадида уларга берилаётган имтиёзлар ҳақида ҳам сўз юритилди.

Ўқувчилар ҳам раҳбарлардан ўзларини қизиқтирган саволларга батафсил жавоб олди. Эртамиз эга-

лари томонидан Ватанни мадҳ этувчи шеърлар ўқилди, фаол ёшларга китоблар совға қилинди.

Тадбир якунида меҳмонлар ҳарбий қисмда яратилган шароитлар, ёшлар учун ташкил этилган тўғараклар фаолияти ҳамда қурол-аслаҳалар намойиши билан яқиндан танишди.

Жануби-ғарбий махсус ҳарбий округ матбуот хизмати

«Vatanparvarlik oyligi»

ТЕАТР САҲНАСИ ҲАРБИЙ ҚИСМГА КҮЧДИ

Тошкент вилоятида жойлашган ҳарбий қисмда Ўзбек миллий академик драма театри актёрлари билан учрашув бўлиб ўтди. «Ватанпарварлик ойлиги» доирасида ташкиллаштирилган ушбу тадбирга Ўзбекистон халқ артистлари Теша Мўминов, Гавҳар Зокирова, серқирра актёр Шароф Музрапов тақлиф этилди.



Ҳарбий хизматчилар билан учрашув давомида элимизнинг сеvimли актёрлари ижод намуналарини намойиш этиш билан бирга ватанпарварлик туйғусининг турли кўринишларини Амир Темур, Жалолiddин Мангуберди, Широқ, Тўмарис, Спитамен, Темур Малик, Нажмиддин Кубро, Бобораҳим Машраб каби буюк аждодларимиз мисолида тасвирлаб беришди. Гўёки Ўзбек миллий академик драма театрининг саҳнаси қисқа муддатга бўлса-да ҳарбий қисмга кўчгандек бўлди. Санъатимиз дарғалари Ватан ҳимоячиларининг куни мазмунли ўтишида ўз маҳоратларининг очилмаган қирраларини амалда исботлади.

Тадбир иштирокчилари устоз санъаткор Теша Мўминов талқинида буюк саркарда тимсолини кўришга муваффақ бўлди. Театр саҳнасида Амир Темур ролини бир неча марта маҳорат билан ўйнаган таниқли актёр соҳибқироннинг Ҳофиз Шерозий билан учрашуви тарихини сўзлаб берар экан, соҳибқирон шоирлик қобилияти орқали Шерозийдек машҳур инсонни лол қолдиргани ҳақида тарихий маълумотларни келтириб



ўтди. Устоз санъаткорнинг ҳар бир монолоғида Амир Темур тимсолини ҳарбий хизматчиларга ҳаққоний кўрсатиб беришга муваффақ бўлди. Соҳибқиронга тегишли «Биз ким – малики Турон, амири Туркистонмиз! Биз ким – миллатларнинг энг улуғи, туркнинг бош бўғинимиз!» монолоғи юрт посбонлари томонидан олқишлар билан кутиб олинди.

Ўзбекистон халқ артисти Гавҳар Зокирова актёрлик маҳоратидан ташқари

психолог сифатида ҳарбийлар билан қизиқарли мавзуларда суҳбат олиб борди. Амир Темур давлат бошқарувида соҳибқироннинг суюкли рафиқаси Бибиҳонимнинг тутган ўрни, қўшинни рағбатлантиришдаги адолатли маслаҳатлари ҳақида маълумотларни худди саҳнада роль ижро этаётгандек тасвирлаб берди. Шунингдек, шеърят шайдоси сифатида ватанпарварликни Эркин Воҳидовнинг мазкур жумлалари билан ифодалади:

*Ўзбек бўлиш фидолик демак
Роҳатидан жудолик демак,
Шаъни деб, ори деб адолик демак,
Ўзбек бўлиш осон эмасдир.*

Серқирра актёр Шароф Музрапов эса Бобораҳим Машраб монолоғидан ташқари она, Ватан ҳақида гўзал кўшиқлар ижро этиб, йиғилганларга байрамона кайфият улашди.

**Асрор РЎЗИБОЕВ,
«Vatanparvar»**

Huquqiy targ'ibot

РЕАБИЛИТАЦИЯ ЭТИЛГАН ҲАРБИЙ ХИЗМАТЧИЛАРНИНГ ҲУҚУҚЛАРИНИ ТИКЛАШ АСОСЛАРИ

Ўзбекистон Республикаси Конституциясида инсонпарвар демократик ҳуқуқий давлат барпо этиш мақсади ва инсон, унинг ҳаёти, эркинлиги, шаъни, кадр-қиммати ва бошқа дахлсиз ҳуқуқлари олий қадрият ҳисобланиши ҳамда давлат фуқароларнинг Конституция ва қонунларда мустақамланган ҳуқуқлари, эркинликларининг таъминланиши эътироф этилган.

Амалдаги қонунчиликка кўра, ҳарбий хизматчиларнинг ҳарбий хизматни ўташлари улардан қатъий тартибни талаб қиладиган Умумҳарбий низомлар билан тартибга солинади. Шу сабабли жиноят қонунчилигида ҳам ҳарбий хизмат билан боғлиқ жиноятлар ҳарбий хизматни ўташ тартибига қарши жиноятлар бобида алоҳида кўрсатиб ўтилган.

Жиноят-процессуал қонунида оқлов ҳукми шахсни реабилитация этишга асос бўлади ва реабилитация этилган шахс қонунга хилоф равишда ҳукм қилинганлиги натижасида ўзига етказилган мулкӣ зарарни ундириш ҳамда маънавий зиён оқибатлари бартараф этилишини талаб қилиш ҳуқуқига эгалиги, шунингдек, шахснинг меҳнат қилиш, пенсия олиш, уй-жойдан фойдаланиш ва бошқа ҳуқуқлари ҳам тикланиши лозимлиги белгилаб қўйилган. Қонуннинг 313-моддасида эса реабилитация қилинган ҳарбий хизматчиларнинг хизматга оид, пенсия олиш, уй-жойдан фойдаланиш ва бошқа шахсий ҳамда мулкӣ ҳуқуқларини тиклаш ва уларга етказилган мулкӣ зарарнинг ўрнини қоплаш, маънавий зиён оқибатларини бартараф этиш, ушбу бобда белгиланган қоидаларга мувофиқ ва Ўзбекистон Республикаси Бош

прокурори, мудофаа, ички ишлар ва зирлари, Давлат хавфсизлик хизмати раиси, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат хавфсизлик хизмати раиси ва Миллий гвардиянинг қўмондони томонидан белгиланадиган тартибда амалга оширилиши белгилаб қўйилган.

Ўзбекистон Республикаси Бош прокуратураси, Мудофаа, Ички ишлар ва зирликлари ва Миллий хавфсизлик хизматининг 2014 йил 4 мартдаги 4-қ/қ, 5, 5, 21-сонли қарори билан тасдиқланган «Реабилитация этилган ҳарбий хизматчиларнинг хизматга оид, пенсия олиш, уй-жойдан фойдаланиш ва бошқа шахсий ҳамда мулкӣ ҳуқуқларини тиклаш ва уларга етказилган мулкӣ зиённи қоплаш, маънавий зиён оқибатларини бартараф этиш тартиби тўғрисида»ги низом қабул қилиниб, унда реабилитация – қонунга хилоф ёки асоссиз равишда жиноий таъқиб қилинган ҳарбий хизматчининг маҳрум этилган ёки чекланган ҳуқуқ ва эркинликларини тиклаш ҳамда етказилган зарарни қоплаш сифатида таърифланган.

Қонунга хилоф равишда ҳукм қилинган оқибатида ҳарбий хизматчилар мулкӣ, маънавий ва хизмат билан боғлиқ (ҳарбий унвон ва давлат мукофоти, пенсия олиш,

уй-жойдан фойдаланиш) бошқа ҳуқуқлардан маҳрум бўлишади. Процессуал тартибга кўра, ҳарбий хизматчининг айбсизлиги ҳақидаги қарор ва реабилитация қилинишига бўлган ҳуқуқ дастлабки тергов ёки суд босқичида эътироф этилади. Ҳарбий хизматчининг ҳуқуқларини тиклаш масаласи қайси мансабдор шахс томонидан ҳал этилишидан қатъи назар, мазкур ҳуқуқий муносабатларда давлат жавобгар субъект ҳисобланади.

Яъни давлат реабилитация қилинган ҳарбий хизматчининг бузилган ҳуқуқларини тиклаб бериш мажбуриятини, мансабдор шахсларнинг айбидан қатъи назар, ўз зиммасига олади ва бу қонунчиликда қатъий белгилаб берилган.

Амалиётда, реабилитация ва унинг ҳуқуқий оқибатлари, ҳарбий хизматчининг аввалги ҳуқуқлари тўлиқ тикланиши кераклиги ҳақида тушунча етарлича шаклланмагани сабабли айрим ҳолларда ноҳақ судланиб, оқланган ҳарбий хизматчиларнинг ҳарбий унвонини ёки бошқа ҳуқуқларини тиклаш ҳақидаги талабига ғайритабиий ҳолат сифатида қаралади. Масалан, низомнинг 20-банди талабига кўра, реабилитация этилган ҳарбий хизматчининг ҳарбий ва бошқа унвонлари тикланиши ҳамда давлат мукофотлари қайтарилиши белгиланган.

Бироқ қўмондонликлар томонидан қонунчиликдаги реабилитация институтини қўллаш асослари ва низом талаблари нотўғри талқин қилиниб, суднинг қарориде ҳарбий хизматчининг айбсиз деб топилиб, унга нисбатан жиноят иши тугати-



либ, реабилитация этилганлиги қайд этилган бўлса-да айрим ҳолларда суд қарориде ҳарбий хизматчининг унвони тикланганлиги кўрсатилмагани важи билан унинг унвони тикланиши бўйича рад жавоби берилади ва натижада жабр кўрган ҳарбий хизматчи ҳарбий унвонини тиклаш низоси бўйича алоҳида суд ажримини чиқариш бўйича қарор қабул қилган судга мурожаат қилиб, ортиқча овозгарчиликларга тўқнаш келади.

Шу сабабли ҳарбий хизматчининг унвонидан маҳрум қилишга асос бўлган суд ҳукмининг бекор қилиниб, айбсиз деб топилиб, жиноят ишини ҳаракатдан тугатиш ҳақидаги суд қарорининг ўзи ҳарбий хизматчининг унвонини тиклаш учун қонуний асос бўлиши сабабли қўмондонликлар томонидан қонуннинг ушбу талаблари инобатга олиниб, унвони тиклаб берилса, реабилитация этилган ҳарбий хизматчиларнинг ҳарбий унвонини тиклаш масаласида ортиқча овозгарчиликнинг олди олинган ва қонун устуворлиги таъминланган бўлади.

О. ЖУМАЕВ,
Ўзбекистон Республикаси
Ҳарбий судининг судьяси

Seminar

TAJRIBA ALMASHISH IMKONIYATI

O'zbekiston Respublikasi mudofaasiga ko'maklashuvchi "Vatanparvar" tashkiloti markaziy kengashida tashkilotning Qoraqalpog'iston Respublikasi, Toshkent shahri va viloyat kengashlari raislari uchun o'quv-uslubiy seminar o'tkazildi.



Seminarining birinchi kunida rahbar xodimlar joriy yilda o'zlari rahbarlik qilayotgan hududiy kengashlar tomonidan amalga oshirilgan ishlar yuzasidan hisobot berib, o'z tajribalari bilan o'rtoqlashdi.

Ikkinchi kunida "Vatanparvar" tashkiloti markaziy kengashi raisi o'rinbosarlari tomonidan yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, ular orasida sportning texnik va amaliy turlarini ommalashtirish hamda ommaviy texnik kasb mutaxassislarini tayyorlash bo'yicha ishlarni yanada

takomillashtirishga qaratilgan mashg'ulotlar o'tkazildi.

Markaziy kengash apparati boshqarma va bo'lim boshliqlari tomonidan moliyaviy faoliyat, tizimdagi "E-AVTOMAKTAV" platformasi imkoniyatlari, kadrlarga oid ish yuritish, ommaviy axborot vositalari

bilan ishlash samaradorligini oshirish kabi yo'nalishlarda mashg'ulotlar olib borildi.

Yuqori saviyada tashkil etilgan o'quv-uslubiy seminarlar davomida hududiy kengashlar raislarining malakasi oshirilibgina qolmay, o'zaro tajriba almashish imkoniyatiga ham ega bo'ldi.

O'zbekiston Respublikasi mudofaasiga ko'maklashuvchi "Vatanparvar" tashkiloti matbuot xizmati

Ayyom shukuhi

BAYRAMONA ZAVQ ULASHILDI

Tobora yaqinlashib kelayotgan Yangi yilning shukuhi, o'zgacha kayfiyati butun yurtimiz bo'ylab namoyon bo'lmoqda. Ayniqsa, tungi poytaxtimiz va uning chiroqlari sevimli bayram eshik qoqib kelayotganidan dalolat bermoqda.



Toshkent shahrining qoq markazi bo'lgan Mustaqillik maydoni va Amir Temur xiyoboni oraliqida joylashgan hududda bosh archa o'rnatildi. Yurtdoshlarimizga yuqori kayfiyat ulashish maqsadida Mudofaa vazirligi tasarrufidagi harbiy orkestrlarning bayramona chiqishlari namoyish etilmoqda.

Dastlab harbiy orkestr sozandalari tomonidan poytaxtimiz markaziy ko'chalari

bo'ylab yangi yil marshi tashkillashtirildi. Qorbobo libosidagi harbiy orkestr ijodiy guruhini aholining barcha qatlami ko'tarinki ruhda qarshi olishdi.

Bosh archa qarshisida davom etgan festival hamyurtlarimizda katta taassurot qoldirdi. Qorbobo libosidagi harbiy orkestr konserti tadbir ishtirokchilariga bayramona zavq bag'ishladi.

R. OCHILOV

"Vatan bilan ulg'ayar shon-shavkatimiz" tanloviga



АСКАР

(эссе)

Воқеа инсон инсонни илк дафъа ерга қўйган малъун кундан бошланган...

Халилуллохни ўтда куйдирган, Исо масиҳни азоблаган, Сарвари Оламни тошбўрон қилган жоҳилият авлоди ҳамон Ер юзида ёвузлик уруғларини сочаётган экан, уларнинг инсон жисму руҳини зоҳирий ва ботиний крематорияларда таҳқирловчи мурватлари иш бераётган экан – АСКАР керак!

Ер аталмиш кўхна полигонда кечган шунча урушлар, вайронагарчиликлар: беватанлар, бевалар, етимлар ва майиб-мажруҳларнинг асрий авлоди кам дейсизми? Инсоният тақдири маълум «тугмача»ларга боғлиқ бўлиб қолган тахликали учинчи минг йиллик аввалида ҳам аскар керакми? Эйнштейннинг учинчиси номаълуму, тўртинчиси аниқ ўқ-ёй билан кечадиган жаҳон урушлари ҳақидаги истехзоли фарази, дейлик ўз ҳаётини исботини топган тақдирда ҳам, барибир – аскар зарур! Гарчи бу башоратнинг ўзида ҳам рамзийлик пинҳон.

«Бошқалар тарафиндан ҳуқуқининг топталмови, четларга маҳкум, мазлум бўлмаслик, чет миллатларга ўз товушини эшитдириб эшитмоққа мажбур этувга шубҳа йўқким, қўлингдаги қуролингга, аскарлик қучинга қараб бўлур» (Абдулла Қодирий. «Бизда аскарлик масаласи». «Иштирокиюн» газетаси, 1919 йил 4 ноябрь, 211-сон).

Ўзбекистонда ичида олови қайнаб турган минглаб ўн саккиз-ўн тўққиз яшар йигитни бир том остида, бир сафда, бир ошхонаю ювиниш хонасида, бир хил кун тартибида – ҳақ-ҳуқуқ ва инсоний кадр-қимматлар доирасида ҳеч қандай интизомсизлигу ўзаро келишмовчиликларсиз жамлаб турадиган ягона тартиб маскани бор. Бу – АРМИЯ!

Саф майдонида бир-бирига елка тутиб, бирваракайига шахдам қадам босаётган, юртимизнинг турли гушаларидан келган бўз йигитлар ҳали яқиндан танишиб ҳам улгуришмаган. Улар ҳарбий дунёга эндигина келишди. Табиатнинг эса шундай азалий қонуниятлари бор: дунёга келдингми, юришни, гапиришни, сени ўраб турган муҳитнинг иссиқ-совуғига мослашишни ўрган! Дунёга келувчи онгли-онгсиз мавжудотнинг бари шу қонуният чизигида оёқланади.

«Тиззангни букмай, қадам ташлайсан, ҳар бир қадаминг етмиш, пошнанг билан асфальтнинг ораси эса ўн беш-йигирма сантиметр бўлсин! Чап оёғингни кўтарганигда, чап қўлинг орта чўзилади, ўнг қўлинг эса мана бундай букилиши зарур, муштинг кўксинг устида туради;

ўнг оёғингни кўтарсанг – аксинча бўлади!», «қараб туринглар, ўнгга, чапга, орта бурлишни кўрсатаман!», «юриб, ҳарбийча салом беришни ўрганамиз!», «саф ичида, бош кийимсиз ва елкангда қурол бўлса, «чест» берилмайди!..»

Бу йигитлар худди бир кунда дунёга келган кўплаб эгиз қўзиларга ўхшайди. Уларнинг қулоғига ўзаро жанжаллашмаслик, муштлашмаслик, бир-бирини камситмаслик қоидалари илк кунларданок қўрғошиндай қуйилади; бир оила эканлиги, ўзбеклар оиласида ака-укалар сену менга бормаслиги уқтирилади. «Батальон, сафлан! Оралиқ масофалар олинсин! Колонна, саф тўғрилансин! Интервал!.. Қадам бос!.. Қолдирилсин! Ё, тавба! Бу қанақа юриш бўлди?! Худди арава боғланган отга ўхшаб қадам бос-япсизлар! Қасамёд куни ҳам шундай юрсаларинг ота-оналарингга кулги бўлмайсизларми?! Армия кўрган акаларинг оғзини ушлаб кулмайди?! Бошқатдан бошланглар!..»

«Ошхона эшигидан бир колонна бўлиб кирамиз. Ҳеч ким шошилмайди, жой талашмайди. Вилоят-вилоят бўлиб ўтириб олманглар! Эшик бўсағасида бош кийимлар ечилади (ҳаво совуқ бўлгани учун)»...

Бўз йигитлар тўрт кишилик аскар столи атрофида «ўтирилсин!» буйруғини кутишади. Буйруқ берилгач, тапир-тапир ўтиришади. «Қолдирилсин! Бу қанақа ўтириш бўлди?! Шунча одам бирданига стулни ерга ишқалаб тортса, биласизларми қанақа ёқимсиз товуш чиқади? Ташқаридан ўтган одам ошхона ўпирилди, деб ўйлайди! Стул тортилмайди, стул – кўтарилиб, секин қўйилади... Сен нега бош кийимингни ечмадинг? Тушунарлими?», «Худди шундай!», «Батальон, ташқарига сафлан!..»

Бўз йигитлар бир неча кун ўтиб, армияда аскар учун энг кўп ишлатиладиган савол «тушунарлими?» эканлигини англай бошлайдилар.

«Ҳамма «маънавий-маърифий тайёргарлик хонаси»га кирсин! Ватанга қасамёднинг матнини, «Гарнизон ва қорувуллик хизматлари низоми» моддаларини ёд оламиз... «Ҳамма «казарма»га сафлансин! Тўшакларни тузатишни, адёллар ҳошиясини тўғрилашни ўрганамиз!..» «То, «батальон, уйқуга!» буйруғи берилмагунча ҳеч ким ўрнини бузмайди, тўшак устига ўтирмайди! Ана, ўтираман, десанг стулча бор»... «Ҳеч ким жўмрақдан совуқ сув ичмайди, посбонлар самоварда иссиқ чой келтиришган, шуни ичинглар! Чой тугаса, айтинглар, яна келтиришади!..» «Ҳеч ким сафда гаплашмайди, тупурмайди, бир-бири-

нинг оёғини босиб олмайди! Чунки саф? Ҳа, яшанглар!»

Кечки тана кўрикларида, бадантарбия машғулотида, тановул маҳалларида, умий ювиниш хоналарида, плаш чодирларнинг устида отиш назарияси машқларида, мажбуриятларни ёд олаётганда, шахсий вақт чоғларида, «курилка»ларда – бу бўз йигитлар мактабда ўн бир йил бирга ўқиган жўраларидан-да яқин, бир-бирини тушунадиган ва ёрдам қўлини чўзишга тайёр бўлиб ўсадилар, улғаядилар.

«Ўртоқ капитан, оддий аскар Асқаров ўқ отишга тайёр!» «Жангга!..» ўлимдай совуқ қўндоқ кифт суякларига маҳкам тақалади. Сақлагични туширасан. Кўз олдинг бир зум тиниб кетади. Тепкини боссанг, ўқ худди... юрагингдан отилиб чиқадигандек, чақиндек чатнашини ҳис этасан... қулоғинг шанғиллаб қолади. Димоғингга порохнинг хиди урилади. Бу ҳид гўё сенинг чин ўғлон бўлиб етилганингга шаҳодат бераётгандек. Ҳаммаси – шанғиллаш лаҳзаларида кечади...

Бўз йигитлар санокли кунлар ичида армиянинг алифбосини ўргана бошлайди. Ўнлаб янги маълумотларни қабул қилиш учун навқирон шуур, албатта, зўриқиш сезади. Аммо шу тахлит улар аскар деган номга тобора муносиб бўлиб, худди найсондан сўнг ерни ёриб чиққан адл гиёҳлардай тез бўй чўзадилар. Шу сабабданми, ота-оналари, дўст-ёрлари тантанали «Ватанга қасамёд» куни жигарбандларини кўриб, унинг ўзгарганини, шундай қисқа фурсат ичида улғайиб қолганини туйқус пайқайдилар. Оталар зимдан севинади, оналар севинч ёшларини бекитишга уринмайдилар.

– Оддий аскар Асқаров!

– Мен!

– «Ватанга қасамёд» қабул қилиш учун олдимга!

– Хўп бўлади! – аскар қурол дастасини тутиб турган қўли билан биринчи шеренгада турган сафдошининг елкасида туттади. Сафдош қатордан чиқиб, унга йўл беради. Худди сержантлар ўргатган тартибда шахдам қадамлар билан саф ўртасига етиб келади ва бу ҳақда командирга билдиради.

– «Ватанга қасамёд» қабул қилишга киришилсин!

– Хўп бўлади! «Мен, оддий аскар Асқаров...» Ана шу кундан бошлаб, ҳарбий қисмда чақирилувчи, дея қараладиган бўз йигитга аскар деган ном, масъулият ва шараф берилади.

Сержантларнинг меҳнат зое кетмади. Энди улар «қолдирилсин!» буйруғини камдан-кам ҳолларда берадиган бўлишади.

“
Ҳали тонг
отишига
бир оз бор.
Аскар постда
найза пичоқ
ўрнатилган
автоматини
исталган пайтда
отишга чоғлаб,
киприк қоқмай,
ютинмай хизмат
ўтайди.
”



МЕН!



Аскар оиласи ҳақида, рўзғоридаги баланд-паст, нуқсонли-нуқсонсиз ҳолатларни, қалбини ўртаётган мушкулларни, шу кунга қадар ҳеч кимга айтишга журъат этмаган сирларини сафдошига айтади. Севган қизининг суратини унга кўрсатади. Хуснихатли қуролдошларидан унга атаб хатлар, шеърлар ёзишини сўрайди... туғилган кунда жондошларидан ҳарбийча табрик эшитиши, совғалар олади...

Шу аснода бир ажойиб тартибот вужудга келганини барча аскарлар кутилмаганда сезиб қолишади. Бу – ёши бир-бирдан фарқ қилмайдиган, бари бирдек навқирон «аскарлар оиласи»дир. Аскар аскарлар оиласининг жонкуяр аъзосига айланади: суткалик наряд ўтаётган дўстининг тўшак чойшабларини алмаштиради; қисқа муддатли таътилга чиққанида у тайинлаган нарсани, албатта, олиб қайтади; дўсти айтмасликни илтимос қилса ҳам, кечки тана кўриги пайтида дўстининг фалон ери оғриётгани ҳақида фельдшерга билдиради; посбонлик пайтлари усти очик қуролдошининг аделлини тортиб қўяди; дўстининг кителлини, панамасини ўзининг кирларига қўшиб ювади; дўсти санчиқ бўлса, унинг куракларини уқалайди; ҳарбий дўшкандан харид қилган ширинликданми, шарбатданми дўстига ҳам илинади, усиз томоғидан ўтмайди... аскар дўстига суянч бўла олаётганидан, мустақил ҳаётга тўғри йўлдан бораётганидан севинади.

Аскар ҳарбий шаҳарчининг фуқаросига айланганини қалбдан кечириб ҳис этгач, туғилган уйини гўё... унутади. Ва бу шаҳарчада худди ўз уйида юргандай яшай бошлайди. Баъзан аскарликка қақриллаётган кунда бир неча чин дўстларигина вокзалга кузатишга чиқишганини эслайди. Энди қарасаки, ўнлаб ана шундай дўстлари бор! Қандай яхши. Бирор сафдошининг жони оғриси, уйдан нохуш хат-хабар келган бўлса, унга қўшилиб баб-баравар изтироб чекади. Кечалари дўстининг қошида мунғаяди. Қўлу тилидан келганча уни юпатади. Унинг руҳини кўтаришга, чалғитишга тиришади. Энди, қадрдон бу ишларни ким ҳам қилади, дейсиз? Етти ухлаб тушинга кирмаган, умрингда бирор марта кўрмаган, ҳатто бир ўлканинг икки буржида дунёга келган фирт бегона йигитлар бир-бирига ана шундай азиз бўлиб кетишади. Бу меҳр чодирини ким, қандай қудратли қўл уларнинг боши узра тутмиш? Ҳамма гап шунда!

Аскар бўлиш, беш-ўн кунга тоғ бағрида сайрга бориб-келиш эмас, албатта. Аскар ҳамма захматни бўйинга олиб, ўз ҳарбий қисмининг йўналишидан келиб чиқиб, командирнинг буйруғига бўйсунган ҳолда, дейлик, «Жангга!» деган муҳим, аммо рўй бериши мумкин бўлган хабарга-да, тайёр туриш дегани. Аскар ортидаги дарвозадан тўп ўтиб кетса, кейинги сафар хатомни тўғирлайман, деб бош эгиб турган футболчи эмас. Унинг хатосида «кейинги сафар» бўлмайди. Унинг ортида ВАТАН деган манзил бор. Зил-замбил ҳарбий халта – «мешок»ни елкага ортомқлаганча ерга туширмай, илк бор тик тепаликка бир неча бор югуриб чиқиш ва тушиш асносида туғилганларингга ҳам пушаймон бўласан. Аммо бу елкангга қум тўла қоп

эмас, сенинг осуда юртининг азиз тупроғи эканини туйганинг, буни тушунганинг сари қалбингдаги алам ўрнини фахр ва шараф ҳисси эгаллаб боради. Аскарни ана шу каби кўплаб синовлар тоблаб боради. Аскар оғир ёки энгил ўтаётган «ўтиш даври»-даёқ бир-бирини танийди. Қалбан, руҳан, инсоний жиҳатлари билан кўшиб танийди. Кимгадир меҳри ортади, кимгадир нафрати. Кимдир кўзи очроқ, суқатойроқ бўлса, кимдир мағрур ва ҳалол... Аскарнинг меҳри ҳам шунга монанд мустаҳкам, қаҳри ҳам ёвга тикилган бургутдек қатъий, қурч.

Ким ким эканлиги билинар синовлардан жондай дўстининг алплардай ўктам ўтиб келаётганидан беҳад шодланади. Сафдошининг этигини чўткалашга пойабзал креми тугаганини, дастрўмоли, тароғи, ойначаси, пули, ручка-дафтари, шампуни, соати йўқлигини сезса, киши билмас унинг чўнтагига қўл солади – камини тўлдирди! Сочини олиб қўяди, унинг хизматини оғринмай қилади. Дўсти ҳақида кимдир хунук гап айтса, ёмонотлиққа чиқарса ёки мазах қилса ғазабланади. Дўстининг камситилишига чидаб туролмайди! Керак бўлса кўкрак кериб, ўртага чиқади...

Эҳ-э, тарошланаётган тошми, кетмон дастами, хулқ-атворми, тартибсизлигу калондимоғликми – барибир! Тарошланаётганга осон бўлмайди. Аскар бу манзилда шу ҳақиқатни теран идрок этади. Чунки бу ўз бошига тушаётди. Уйида эрталаблари ғудраниб, «яна бироз ётай» дея тағин кўрпага ўранадиган эркаликлар бунда кетмайди. Тағин кўп нарсаларни бу ердаги интизом инкор қилади.

Армияда қадам чап оёқда ташланади. Одамлар томонидан тўғри, деб ҳисобланган ҳаёт кўникмаларидан фарқли ўлароқ, бари мутлақо тескари йўсинда кечади. Армияда тўртбурчак тош думалайди, думалоқ тош кўтарилади! Бунинг аҳмоқона формула эканини исботлашга ҳарчанд уринманг – абас! Армия – фақат ўз формулаларини тан олади!

Армия оламининг ўз қонун-қоидалари, ҳикматлари бор. Янги келган аскарга: «Аскар, армияда уч тоифа бўлма: ўғри, очкўз, чақимчи!» – дейишади кўпни кўрган сержантлар. Ёки қўлига қурол олиб, илк бор постга чиқаётган аскарнинг қўлига: «Аскар, автоматнинг сақлагичини ўйнама! Шундай вазиятлар бўлади, сақлагични қандай туширганингни билмай қоласан, яна шундай вазиятлар бўладикки, сақлагични туширолмай қоласан!» «Аскар, армияда ёғоч ҳам бир йилда бир марта отади!», «Аскар, унутма! Сени оила аъзоларинг, севган ёринг кутмоқда!», «Қуролнинг вазифаси битта – душманни гумдон қилиш!» каби ҳикматлар сингдириб борилади.

Яна бир жиддий ундалма борки, уни кулгига олиб ҳам, тескари айтиб ҳам бўлмайди: «Аскар! Постда ухлаб қолма!»

Ўзбекистонда жанговар қуролдан вазиятдан келиб чиқиб, ўз қарорига кўра ўқ узиш ҳуқуқи фақат соқчига берилган! Соқчи – мутлақо дахлсиз! У давлати ишониб топширган постни кўриқлаш ва ҳимоя қилиш жараёнида

жанговар вазифани бажаради. Бу жиддий масъулиятни адо этиш пайти соқчига халал беришга ҳеч кимнинг ҳаққи йўқ...

Ҳали тонг отишига бир оз бор. Аскар постда найза пичоқ ўрнатилган автоматини исталган пайтда отишга чоғлаб, киприк қоқмай, ютинмай хизмат ўтади. Иссиқ ойлларда қора чигирткаларнинг чириллаши, оининг тажалли шуълалари остида... совуқ ойлларда пойабзали сақич лойдан безор, изғирин шамол ўпкасини «рентген» қилиб кетса-да, қор учқунлари тинмай азиз бошидан савалаб ёғса-да, у қаерда ва нима учун тураётганини унутмайди!

Ҳали тонг отишига бир оз бор. Эл бомдодга кўзғалмасдан аввал, аскар постда туриб, элга тинчлик-сихатлик, яқинларига умр тилайди. Аскар замону макон аталмиш келажак манзилларга ошиқаётган учқур уловдан тушиб қолган йўловчига ўхшайди. Аскар постда туриб, ўзини ўзи томоша қилади! Чин сарҳисоб – доим бешафқат. Аскар беҳосдан вужудини кўриб қолади. Руҳи – йўқ! Аммо у ҳозиргина шу ерда эди-ку! Қани у?! Аскар руҳини пайпаслайди... унинг кўнгли баайни шоҳ сатрини битган шоир кўнглидек туйқус юксалади. Аскар... онасини соғинади. Соғинчлар, изтироблар кўнглини ўстиради... Аскар шу кунгача онаси учун ҳеч нарса қилолмаганига ачинади. Волидасининг дилини оғритган чоғларини хотирлайди. Кўз ўнгида меҳрибон сурат намоён бўлади. Кўнгли бузилади...

Энг тўғри йўл – қийноқ йўли! Тун. Қазарма. Тўғри йўл измида тобланаётган бу бадан ва лаҳза сайин тозараётган руҳ айни дамда соғинч тақозоси – онг остида жунбушга келган ва ахийри уфқ узра чизги берган камалақдек рангин туш оғушида. Лазиз туш... Қадрдон анҳор бўйи. Ана, ёмғир сув оқимига ўқ каби отилмоқда. Баҳор. Ана, унинг суюклиги – буғдойранг, бодомқовоқ қиз. Шу он аскарнинг бедор ҳислари тугмадай ечилиди, лаҳзалик эпкин кўнглини кўтаради. У юлдуздай жимирлаётган ҳаёт зийнати суйганининг мушфиқ кўзларида кўради. Бу туш – хушдан ортик, ҳаётдан қиммат! Изхори ёмғирпўш остига чекинади. Ажиб салқинлик бронезилетнинг зўридан санчиқ бўлган кифтига малҳамдек босилади...

Недир шовқин ила бари изга қайтади. Тамом бўлади! Гўё бор-будини растага қўйиб, кўз-кўз қилаётган тужжор мисол онг ости ўз қаъридаги ганжиналарини алақандай қичқирқандан саросимага тушган янглиғ дарҳол йиғиштириб олади.

...О, кўшиқ! Кечиргин, юрак қонмади.

...Посбон қичқиради: «Взвод, Тревога!!!»

Уйғонишдан бошқа чорам қолмади...

Посбон «Тревога» билан аскарни уйғотади. У дақиқа ўтмай кийинади. Бу одатдагидай ҳаётчанлик билан эгнига либос тортиш эмас, балки эловраб, нима қилаётганини ўзи ҳам билмай, кўзлари қизариб, шартли рефлексга айланган бемаза юмушни бажариш... аммо кўникиш шарт! Аскар юк халта ва қуролларини олади. «Жанговар ҳисоб» бўйича ўз позициясини эгаллайди... унинг

жанговар шайлиги шу тариқа сайқалланиб боради.

Кечки йўқлама – аскар кун тартибининг муҳим қисми. Уруш даврида тонготарда жангга кирган аскарлардан оқшом ким қайтди, ким... қолди – кечки йўқламада аён бўлади. Исм-шарифи ўқилганда «МЕН!» деб жавоб бермаган ўғлон номи шараф билан ёд этилади...

Янги аср арафасида Сариосиёда кечган жангларда миллатнинг ўнлаб Қаҳрамонлари, Эломонлари, Бобур йигитлари мустақиллик ҳимояси йўлида жон тақдир этган...

Тинчлик даври. Бахмал туманидаги ҳарбий қисмининг «Кечки йўқлама дафтари»да ана шу ўғлонлар номи ҳануз қайд этилади. Кечки йўқлама бошланади:

«Катта лейтенант Маҳмуджон Жалилов!»

– Ватан ҳимояси йўлида қаҳрамонларча ҳалок бўлган!

«Лейтенант Бобуржон Ғаниев!»

– Ватан ҳимояси йўлида қаҳрамонларча ҳалок бўлган!

«Лейтенант Сайёр Садинов!»

– Ватан ҳимояси йўлида қаҳрамонларча ҳалок бўлган!

«Катта сержант Эломон Отажонов!»

– Ватан ҳимояси йўлида қаҳрамонларча ҳалок бўлган!

«Сержант Қаҳрамонжон Мадалимов!»

– Ватан ҳимояси йўлида қаҳрамонларча ҳалок бўлган!..

Рўйхат яна давом этади. Ёш аскарлар акаси ўлган боладай донг қотади. Улар кимнинг, нима учун ҳалок бўлганини суюк-суяганидан ўтказиб сеза бошлайди. Муштарини маҳкам тугади. Қирғий қароқларида ёш айланади... Батальон бўйича навбатчи рўйхатни давом эттиради... ўз номини эшитган аскар «МЕН!» дейди... этлар бир жунжикади! Рўйхат давом этади. Аскарлар шахт ва алам билан бирма-бир борлигини тасдиқлайди... «МЕН! МЕН! МЕН!..»

Аскарнинг кўзи ўтмаслашмайди. Аскарнинг билагидан куч кетмайди. Аскар чарчамайди. Аскар – ҳарбий либос ичидаги соғинч! Аскар – қурол тутиб турган Ватан! Уни мудом оналар дуоси, дунёдан шахид кетган ҳарбийлар руҳи қўллаб юради. Аскар бир куни уйига қайтади, қайтганда ҳам Алпомишдай бўлиб қайтади. Аскар муштини тугса, душманнинг, ёвузликнинг жон томири узилиб кетади. Аскар яраланиб йиқилса ҳам унинг ўктам сиймоси акс этган сурат деворлардан, пештоқлардан ёниқ боқиб туради. Аскар – ўлмайди!

Аскар ҳар доим номини эшитган он шахт билан борлигини тасдиқлайди:

«МЕН!»

Muloqot

O'zbekiston Respublikasi mudofaasiga ko'maklashuvchi "Vatanparvar" tashkiloti markaziy kengashida "Rais va yoshlar" uchrashuvi o'tkazildi.

Videoanjuan shaklidagi tadbirida "Vatanparvar" tashkiloti tizimida faoliyat yuritayotgan 18 yoshdan 30 yoshgacha bo'lgan xodimlar, sportchilar tashkilot markaziy kengashi raisi Husan Botirov bilan ochiq va samimiy muloqot qildi. Uchrashuvda H. Botirov "Vatanparvar" tashkiloti tomonidan aholi, ayniqsa, yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, ular orasida sportning texnik va amaliy turlarini ommalashtirish, ommaviy texnik kasb mutaxassislarini tayyorlash bo'yicha amalga oshirilayotgan keng qamrovli ishlarda tashkilotning yosh xodimlari va sportchilarining o'rni beqiyos ekanini ta'kidledi. Shuningdek, yaqin kunlarda "Vatanparvar" tashkiloti yoshlarining sa'y-harakatlarini qo'llab-quvvatlash hamda ularni mehnati, muvaffaqiyatiga yarasha munosib rag'batlantirishga oid qator mexanizmlar joriy etilishini ma'lum qildi.

O'z navbatida tashkilotning yosh xodimlari va sportchilari so'zga chiqib, ularni o'ylantirib kelayotgan masalalar hamda tashkilot faoliyatini yanada

TASHABBUSLAR QO'LLAB-QUVVATLANDI



rivojlantirish borasidagi takliflarini bildirdilar. Yoshlar tilga olgan muammolar ushbu tadbirning o'zidayoq bartaraf etildi va ularning jo'yali takliflari inobatga olinishi qayd etildi.

Ta'kidlanganidek, mazkur tashkilot o'z muassasalarini serg'ayrat, shijoatli, yuqori malakaga ega kadrlar bilan to'ldirish masalasiga alohida e'tibor qaratib kelmoqda. Tashkilot tizimida 18 yoshdan 30 yoshgacha bo'lgan yoshlar soni 685 nafarni tashkil etib, shulardan 32 nafari

rahbarlik lavozimlarida faoliyat yuritmoqda. "Vatanparvar" tashkiloti sportchilari o'tgan 2021-yilda 3 ta oltin, 5 ta kumush va 2 ta bronza medalga sazovor bo'lgan bo'lsa, 2022-yilda esa 6 ta oltin, 6 ta kumush va 13 ta bronza medalni qo'lga kiritdi. Ushbu muvaffaqiyatlarning 90 foizdan ortig'i yosh sportchilarning ulushiga to'g'ri keladi. Mamlakatimiz, MDH, Osiyo va jahon miqyosida o'tkazilgan musobaqalar va chempionatlarda yuqori o'rnlarga sazovor bo'lgan yigit-qizlarning mehnati besamar

ketmadi. Ular respublikamizning yetakchi oliy ta'lim muassasalariga imtiyozli ravishda o'qishga kirdilar. Hozirda ushbu imtiyozdan foydalanib, oliy o'quv yurtlarida grant asosida o'qiyotgan "Vatanparvar" tashkiloti sportchilarining soni 42 nafarni tashkil etadi.

Tadbir so'ngida bunday uchrashuvlar tizimli o'tkazilishi qayd etildi.

Leytenant Dilshod RO'ZIQULOV,
«Vatanparvar»

Ma'naviyat

UCH AVLOD VAKILLARINI BIRLASHTIRDI

Yurtimizda tarix, bugun va kelajakni o'zida mujassam etgan "Uch avlod uchrashuvi" ma'naviy-ma'rifiy tadbirlarini o'tkazish an'anaga aylangan. Mana shunday uchrashuv Mudofaa vazirligi Axborot kommunikatsiya texnologiyalari va aloqa harbiy institutida, aloqachilar harbiy qismi, Zangiota tumani xalq ta'limi bo'limi hamda tuman ma'naviyat bo'linmasi bilan hamkorlikda bo'lib o'tdi.



"Milliy armiyamiz – Yangi O'zbekistonning mustahkam qalqonidir!" shiori ostida o'tkazilgan tadbirga faxriylar, yurt ravnaqi, tinchligi, yosh avlod ta'lim-tarbiyasi yo'lida fidokorona mehnat qilgan keksalar, o'rta avlod vakillari hamda "Vatan tayanchi" otryadi o'quvchi-yoshlari taklif etildi.

Ishtirokchilar yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash uchun hayot maktabiga aylanib ulgurgan aloqa harbiy institutining yangi va zamonaviy innovatsiyalarga boy g'oyalari va o'quvchi-yoshlarni axborot texnologiyalariga bo'lgan qiziqishlari xususida fikr almashdilar. Uch avlod vakillariga harbiy institutdagi zamonaviy ta'lim sohalarini, kursantlar uchun yaratilgan shart-sharoitlarni, buyuk sarkardalar tematik sinflari, alloma va mutafakkirlar, vatanparvar bobolarimizning hayoti xususida ma'lumot berildi.

Qiyinchiliklarni ahillik bilan, mardonavor yengib o'tgan xalqlargina o'zligini saqlab

qolib, taraqqiyotga erishadi. Shu bois yurtimizdagi bugungi islohotlar, yoshlarga yaratib berilgan sharoitlar, ko'p millatli Vatan – Yangi O'zbekistonning ravnaqi yo'lida birlashish mas'uliyati muloqotlarning asosiy mavzusi bo'ldi. Kexsa avlod vakillarining hayotiy tajribalari, ular erishgan yutuqlar, qilgan ishlari haqida yoshlarga aytib berildi.

Tadbir doirasida Mudofaa vazirligi rahbariyati kutubxona va o'quvchi-yoshlar uchun badiiy kitoblar to'plamini tuhfa qildi.

Keksalarning o'g'itlari yoshlarni chuqur bilim olishga, doim yaxshilik qilishga, komil inson bo'lishga ilhomlantirgan bo'lsa, "Impuls" harbiy ansambli xonandalari tomonidan ijro etilgan Vatanni madh etuvchi kuy-qo'shiqlar barchaga xursandchilik kayfiyatini ulashdi.

Mayor Sherqo'zi HAKIMOV,
Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari
va aloqa harbiy instituti

EZGULIK DARSI

Inson uchun xotirjamlik va salomatlikdan ortiq ne'mat yo'q. Ammo hayot odam bolasini ba'zan og'ir xastalik va chorasizlik bilan sinaydi. Shunday paytda ozroq e'tibor va g'amxo'rlik ko'ngillarga katta dalda, tuzalishga ilinj beradi. Bu hamdardlikni, ayniqsa, Yangi yil bayrami oldidan Qorbobo va Qorqiz ulashsa, yurakdagi ishonch tog' qadar yuksaladi.



Termiz davlat universitetining yoshlar masalalari va ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha prorektori O. Shofiyev, o'zbek filologiyasi fakulteti dekan o'rinbosari H. Ahmedov va faol talaba-yoshlar ishtirokida Termiz ftiziatriya va pulmonologiya markazida davolanayotgan bolajonlar uchun "Hech kim mehr va e'tibordan chetda qolmaydi" shiori ostida ma'naviy-ma'rifiy tadbir tashkil etildi.

"Murg'a k qalb" egalari bilan uchrashar ekansiz, jajjigina vujudida

dardni ko'tarib yurgan bolalar va farzandining ertangi kuniga umid bilan yashayotgan onalar "bu kasalliklarni, albatta, yengamiz" deya o'z so'zlarida ta'kidlab o'tdilar.

Muassasada davolanayotgan bolajonlarga quvonch ulashish maqsadida ertak qahramonlari ishtirokida turli xil chiqishlar namoyish etildi. Qorbobo va Qorqizdan bayram sovg'alarini olgan bolalar shuurida inson qadri ulug'lanayotgan bu kunlar yodi bir umrlik ezgulik darsi bo'lib muhrlanadi.

Jamshid NAZAROV,
Termiz davlat universiteti
o'zbek filologiyasi fakulteti tyutori

Harbiy hikmatlar

Urushda g'oliblar bo'lmaydi

Askari quvvatli mamlakat boy bo'lur, boy mamlakatning askari quvvatli bo'lur.

Amir TEMUR

Ogoh bo'l hamisha, bu jahondir bor-yo'q,
Hech narsa yo'q unda, kemtigi zinhor yo'q,
Yo'q desalar, bor deb uni qil isbot,
Bor desalar, ayla dadil inkor "yo'q"!



Ko'rdimki, eng noyob ne'mat rostgo'ylik va qahramonlik, eng og'ir og'riq esa yomon va munofiq do'stlar ekan.

Najmiddin KUBRO

O, yer ustida yurgan ne-ne kimsalarni biz tirik sanaymiz, aslida ular o'lik, yer ostida yotgan ne-ne zotlarni biz o'lik sanaymiz, aslida ular tirikdir.

Abulhasan HAKONIY

Muvaffaqiyatning eng muhim formulasi bu odamlar bilan qanday til topishishni bilishdir.

Teodor RUZVELT

Tayyorgarlik muvaffaqiyat va g'alabaning kalitidir.

Duglas MAKARTUR

Jasorat oyoqda turib, gapirishga undaydigan kuch, shu bilan birga, o'tirib tinglashni o'rgatadigan kuch ham.

Uinston CHERCHILL

Hech kim kutilmagan hodisalardan qo'rqmaydigan darajada jasur emas.

Muammolar aqlli insonlarni chora ko'rishga, nodonlarni esa tushkunlikka tushishga undaydi.

Yuliy SEZAR

Ko'p o'qi, yana o'qi. Aleksandri, Gannibalni, Sezarni, Gustavusni, Turinni, Yevgeniyini, Frederikni... Urushda buyuk general bo'lish, urush san'atini o'zlashtirishning yagona yo'li shu.

O'z qo'shinini boqishni istamagan xalq tez orada bironikini boqishga majbur bo'ladi.

Askarlarining boshida turgan qo'mondonning jangovar ruhi bo'lmasa, u o'rtamiyona qo'mondon sanaladi.

Napoleon BONAPART

Urushda g'oliblar bo'lmaydi, faqat mag'lublilar bo'ladi.

Artur Nevill CEMBERLEN

Insonning eng oliy qiymati uning halovat va shonshuhrat ichidagi hayoti emas, balki qiyinchilik va kurashlarda turgan joyidir.

Martin Lyuter KING



Lider – bu cho'pon. U to'daning ortida turadi, eng ephillarni oldinda yurishiga qo'yib beradi. Boshqalari esa orqadan boshqarilayotganini bilmay ergashadilar.

Nelson MANDELLA

Urushning birinchi qurboni – haqiqat.

Jonson XAYRAM

Haqiqiy qahramonlarning hammasi ham kitoblardagi jangovar jangchilar emas. Armiyadagi har bir erkakning muhim o'rni bor. Hech qachon taslim bo'lmang. Hech qachon ishingiz ahamiyatsiz deb o'ylamang. Har bir insonning o'z vazifasi va o'rni bor. Har bir inson buyuk zanjirning muhim halqasidir.

General Jorj PATTON

Har bir inson o'z taqdiriga o'zi egadir, ammo harbiyning taqdiri o'ziga emas, balki Vatanga tegishli.

Oleg ROY

Urushni tugatishning eng tez yo'li mag'lub bo'lishdir.

Jorj ORUEL

Ofitserning roli buyuk va sharaflidir. Va uning yuki hamma uchun emas.

Mixail DRAGOMIROV

G'alaba uchun imkoniyat faqat kurashda!

CHINGIZXON

Har qanday urush faqat dastlabki o'ttiz kunda mashhur bo'ladi.

Artur SHLEZINGER

Urush jazmanga o'xshaydi – er-xotinni bir-biridan ayiradi.

Bashir ZUGUMOV

Armiya qoidasi: bo'syunishni bilgan odamgina buyruq bera oladi. Bu xuddi cho'kishni bilgan suzishni biladi deganday gap.

Lorens PITER

Qo'lida qurol bilan o'lim ko'rgan askardan skalpelli shifokor kamroq o'lim ko'radi.

Son XYONGYON

Askarga achinish kerak emas, uni himoya qilish kerak.

Leonid XABAROV

Qonun askarga qonunlar ustidan qonun chiqarishga yo'l qo'ymaydi. "Imkonsiz" degan so'z askarda bo'lmaydi!

Vladimir KAFANOV

Askarga unga nima qilish kerakligi haqida hech qachon ogohlantirilmaydi. Uning bog'langan ko'zlaridagi bandaj so'nggi daqiqalardagina ochiladi.

Anri BARBUSSE

Askar yashab qolishi uchun o'lishga tayyor bo'lishi shart.

Jeff MARIOTT

Madaniyatsiz armiya beaql armiyadir. Aqlsiz armiya esa dushmani yengishga qodir emas.

Mao SZEDUN

Mohir qo'mondon urushni yoqtirmaydi. Mohir jangchi o'ldirishni istamaydi. Odamlarni boshqara oladigan mohir sardor odamlarni xo'rlamaydi.

Toyotomi XIDEYOSHI

Odamlarni urushga tayyorgarliksiz yuborish bu xoinlik bilan barobardir.

KONFUTSIY

Askarlar tug'ilmaydi. Shoirlar, ustozlar, daholar tug'iladi. Askarlar esa yaraladi, ularni himoya qilish uchun.

Dmitriy XRENKOV

Urushning oxirini faqat o'lganlar ko'radi, deb kim aytganini bilmayman. Ammo men urushning oxirini ko'rdim. Yana yashab keta olamanmi, savol mana shunda.

Sem KEXILL

Xizmat va do'stlik bir-biri bilan kesishmaydigan parallel yo'llardir.

Aleksandr SUVOROV

Yulduz O'RMONOVA tayyorladi.



Inson – aziz, xotira mangu

SHERDIL UCHUVCHI EDI

Havo hujumidan mudofaa qo'shinlari va Harbiy havo kuchlari qo'mondonligiga qarashli Yangiyo'l tumanidagi harbiy qismda "Milliy armiyamiz Yangi O'zbekistonning mustahkam qalqonidir!" shiori ostida "Qahramonlar nomi barhayot!" mavzusida ma'naviy-ma'rifiy tadbir o'tkazildi.

Unda Surxondaryo viloyatining tog'li hududlarida Vatanimiz sarhadlariga suqilib kirish niyatida bo'lgan g'arazli to'dalarga qarshi kurashda mardlik ko'rsatib, qahramonlarcha halok bo'lgan katta leytenant Sher Muhammad Ashirovning yorqin xotirasiga hurmat bajo keltirildi. Qahramonning onasi Munisxon aya Ashirova va oila a'zolari, Respublika "Nuroni" jamg'armasi boshqaruvi bo'lim boshlig'i Majid Umarov, ma'naviyat targ'ibotchilari, mehnat faxriylari, harbiy xizmatchilar, askar va o'quvchilar ishtirokida o'tgan tadbirida mamlakat suvereniteti va mustaqilligini himoya qilish yo'lida xizmat majburiyatlarini fidokorona bajarish mas'uliyati va sharafi xususida so'z bordi. Yosh avlodga bu boradagi o'git va nasihatlar hayotiy misollar asosida yetkazildi.

Tadbirida ta'kidlanganidek, 1975-yili Yangiyo'l tumani Xalqobod qo'rg'onida tug'ilgan Sher Muhammad Jizzax oliy harbiy aviatsiya bilim yurtining ilk bitiruvchilaridan biri bo'lgan. Yosh ofitser bilim yurti diplomini olgach, Buxoro, Kogon, Chirchiq shaharlaridagi harbiy qismlarda xizmat qilgan. 2000-yili Surxondaryo viloyatining Sariosiyo tumanida xizmat burchini bajarish chog'ida halok bo'lgan qahramonimiz II darajali "Shon-sharaf" ordeni bilan taqdirlangan. Sh. Ashirov o'qigan Yangiyo'l tumanidagi 28-umumta'lim maktabida unga bag'ishlangan yodgorlik



Muallif suratga olgan

majmuasi qad rostlab turibdi. Yangiyo'l tumani hokimining qarori bilan Xalqobod qo'rg'onidagi ko'chalardan biriga uning nomi berilgan.

S a m i m i y muloqot so'ngida tadbir ishtirokchilari

qahramonimizning 28-umumta'lim maktabida barpo etilgan yodgorlik majmuasi poyiga gulchambar qo'ydilar. Matonati va jasorati bilan yoshlarga o'rnak namunasini ko'rsatgan Sher Muhammad Ashirovning nomi qalblarda mangu yashaydi.

Leytenant Dilshod RO'ZIQULOV,
«Vatanparvar»

Viktorina

O'QUVCHI-YOSHLAR
BAHSLASHUVI

Yurtimizda 15-noyabrdan 15-dekabrgacha "Yong'in xavfsizligi oyligi" o'tkazildi. Oylik doirasida O'zbekiston Respublikasi Harbiy prokuraturasi organlari tomonidan mutasaddi tashkilotlar, harbiy qo'mondonliklar bilan hamkorlikda profilaktik tadbirlar, uchrashuvlar va davra suhbatlari keng ko'lamda tashkil etildi. Oylikning so'nggi kunlarida joylarda maktab o'quvchilari o'rtasida viktorinalar o'tkazildi.



Yong'in xavfsizligi qoidalariga rioya qilish har bir fuqaroning asosiy vazifalaridan biridir. Kuni kecha Toshkent viloyati Favqulodda vaziyatlar boshqarmasida Chirchiq harbiy prokuraturasi bilan hamkorlikda yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, ularni yong'in xavfsizligi sohasiga qiziqtirish maqsadida "Yong'in xavfsizligi oyligi" yakuniga bag'ishlangan viktorina o'tkazildi. Viktorina viloyatdagi maktablar o'rtasida tashkil etildi.

Tadbirida jamoalar sohaga oid rasm chizish, she'riy chiqish, savol-javob hamda sahna ko'rinishi shartlari bo'yicha bellashdilar. Jamoalar ishtirokchilari yong'in xavfsizligi qoidalariga rioya etish qanchalik muhim ekanligini o'zlarining chiqishlari orqali namoyon etdilar.

Yakuniy natijalarga ko'ra, 1-o'rinni Olmaliq shahridagi 19-ixtisoslashgan davlat umumta'lim maktabi, 2-o'rinni Bekobod shahridagi 13-umumta'lim maktabi hamda 3-o'rinni Nurafshon shahridagi 9-ixtisoslashgan davlat umumta'lim maktabi o'quvchilari egalladi.

Adliya polkovnigi Akbar BOBOYEV,
Chirchiq harbiy prokurori

Ijodiy kecha

ADIBLARNI RUHLANTIRGAN
ILHOM "BULOQ" LARI

O'zbek adabiyotining zabardast namoyandalari Tog'ay Murod va Muhammad Yusuf ijodidan bexabar yurtdoshimiz kamdankam topilsa kerak. Sevimli adiblarimizning hayoti, ijod yo'li, asarlarining yaratilish tarixini esa hamma ham bilavermaydi.

Ma'suma Ahmedova hamda Nazira As-Salom. Bu ikki mushtipar ayol adabiyotimizning zabardast namoyandalari bilan umrguzaronlik qilish bilan birga ularning merosini o'rganishda, biz bilmagan qirralarini kelajak avlodga yetkazishda kamarbasta bo'lishmoqda. Adabiyotimiz xazinasiga "Yulduzlar mangu yonadi", "Ot kishnagan oqshom", "Oydinda yurgan odamlar", "Momo yer qo'shig'i", "Otamdan qolgan dalalar" kabi o'lmas asarlar, "Xalq bo'l, elim!", "Ulug'imsan, Vatanim!", "Erka kiyik", "Yolg'onchi yor", "Bevafo ko'p ekan", "Tanish teraklar", "Bulbulga bir gapim bor", "Iltijo", "Ishq kemasi", "Ko'nglimda bir yor" singari umrboqiy she'riy to'plamlarni meros



qoldirgan bu ikki ijodkorning sermahsul ijodida Ma'suma Ahmedova hamda Nazira As-Salomning o'rni beqiyos. Aniqroq qilib aytganda, ular taniqli adib va shoirimizning hayot yo'ldoshlari, o'lmas asarlarining ilhom farihtalaridir.

Xalqimizning har ikki sevimli ijodkorini ham XX asrning 70-yillarida adabiyot osmonida yarq etib yaraqlagan yulduzga tenglashtirish mumkin. Chunki Tog'ay Murod ham, Muhammad Yusuf ham 70-yillarning oxirida o'zining ilk kitoblari bilan o'sha davr adabiy muhitiga yangicha yo'nalishlarni olib kirishga muvaffaq bo'lgan.

Chirchiq garnizonida joylashgan harbiy qismda Tog'ay Murod va Muhammad Yusuf

ijodiga bag'ishlangan adabiy kecha tashkillashtirildi. Kecha davomida ular ijodining shinavandalari bo'lgan harbiy uchuvchilar sevimli yozuvchilari haqida bir-biridan qiziqarli ma'lumotlarga ega bo'lishdi. Ma'suma Ahmedova turmush o'rtog'i Tog'ay Murod haqida uning ilk qissasi – "Yulduzlar mangu yonadi" yozilish tarixi, qissadagi

tarjimalari va boshqa qissa hamda romanlarining yozilish tarixlariga to'xtalib o'tdi.

Muhammad Yusufning turmush o'rtog'i Nazira As-Salom va harbiy uchuvchilar o'rtasida do'stona aloqalar o'rnatilgan desak adashmaymiz. Chunki har yili harbiy xizmatchilarning poytaxtimizdagi "Adiblar xiyoboni" da sevimli shoirming tavallud kuniga bag'ishlangan ijodiy kechalarda qatnashishi an'anaga aylangan. Shunday bo'lsa-da, har safar tinchligimiz posbonlari Nazira As-Salomdan Muhammad Yusuf haqida qayta-qayta eshitishadi. Har safar o'zlari uchun sevimli shoirning yangi qirralarini kashf etishga harakat qilishadi. Kecha davomida bu an'ana davom ettirildi. Nazira As-Salom Xalq shoirining qo'shiq qilib kuylangan she'rlari "Ulug'imsan, Vatanim!", "Bobodehqon", "Xalq bo'l, elim!" haqida qimmatli ma'lumotlarni yig'ilganlarga yetkazdi.

Tadbir davomida kitobsevar harbiy xizmatchilar sevimli adiblarining ijodiga hurmat ma'nosida ularning asarlaridan namunalar o'qishdi. Ijodiy kecha yakunida Nazira As-Salom harbiy uchuvchilarga shoirning kitoblaridan sovg'a qildi.

Asror RO'ZIBOYEV,
«Vatanparvar»



personajlar, ular orqali yoritilgan syujetlar haqida gapirib berdi. Shuningdek, "Ot kishnagan oqshom" asarining Moskvadagi muvaffaqiyati, kavaleriya polkida xizmat qilgan urush faxriysining e'tirofi, adibning

Dzyudo

Dzyudochilar uchun 2022-yilgi mavsum Isroilda o'tkazilgan "World Judo Masters" turniri bilan yakunlandi. O'zbekiston terma jamoasi a'zolari mazkur musobaqaning bitta kumush va 2 ta bronza medalini qo'lga kiritishdi. Mudofaa vazirligi Oliy sport natijalarini rivojlantirish markazi (MVSM) vakili Davlat Bobonov qatorasiga ikkinchi yil jahon reytingini peshqadamlik bilan tugatdi.



"Parij – 2024"

SARI ODIMLAR

"WORLD JUDO MASTERS" TURNIRI

Isroilning Quddus shahrida dzyudo bo'yicha "Masters" seriyasiga kiruvchi yilning eng so'nggi musobaqasi o'tkazildi. Dunyoning 58 ta mamlakatidan jami 367 nafar sportchini jamlagan, nufuzi jihatidan jahon chempionatidan keyingi o'rinda turuvchi, o'z navbatida, har bir vaznning eng kuchli 36 nafar sportchisi ishtirok etish huquqiga ega bo'lgan mazkur nufuzli musobaqada 194 nafar erkak va 173 nafar xotin-qiz dzyudochi o'zaro bellashdi. "Parij – 2024" yozgi Olimpiya o'yinlari yo'lida muhim reyting ochkolari taqdim etilishi bilan ham muhim ahamiyatli turnirda O'zbekiston terma jamoasining 17 nafar a'zosi qatnashdi. "World Judo Masters" turnirida qatnashgan atletlarimizning qariyb teng yarmini Mudofaa vazirligi Oliy sport natijalarini rivojlantirish markazi vakillari tashkil etdi.

G'olibga 900 reyting ochkosi taqdim etiluvchi mazkur nufuzli musobaqa yakunida vakillarimizning uch nafari sovrindor bo'ldi. Uch nafar sportchimiz musobaqani kuchli beshlikda, yana uch nafari reyting ochkolar taqdim etadigan 7-pog'onada o'z ishtirokini yakunladi. Buni biroq boshqacharoq izohlaganda, O'zbekiston dzyudochilarining 9 nafari Quddus turnirida Olimpiya reytingi uchun zarur ballarini qo'lga kiritdi. Xususan, -66 kg vazn toifasida kurashgan hamyurtimiz Sardor Nurullayev musobaqani 5-pog'onada yakunlab, "Parij – 2024" yozgi Olimpiya o'yinlari yo'lida 324 reyting ochkosiga ega bo'ldi. U bronza medal uchun bahsda fransiyalik Valide Xyarga imkoniyatni boy berib qo'ydi.

-73 kg vazn toifasida bellashgan hamyurtimiz Shahram Ahadov esa finalgacha barcha raqiblarini mag'lub etdi. So'nggi hal qiluvchi bahsda esa braziliyalik Daniel Kargninga qarshi tatamiga chiqdi. Murosasiz kechgan bahsda Tokio Olimpiadasi sovrindori Kargning qo'li baland keldi va Ahadov musobaqani kumush medal bilan yakunladi. Qizig'i ushbu vazn toifasida bronza medal uchun bahs ham jamoamizning ikki nafar vakili – Obidxon No'monov va Murodjon Yo'ldoshev o'rtasida kechdi. Mazkur qarama-qarshilikda Yo'ldoshevning qo'li baland keldi va "World Judo Masters" turnirining bronza medalini qatnashdi. Yana bir ahamiyatli tomoni No'monov yarim finalda Shahram Ahadovdan mag'lub bo'lgandi, Yo'ldoshev esa o'tish bellashuvda MVSM vakili Hikmatilloh To'rayevdan ustun kelib, shohsupaga ko'tarilish imkoniyatini saqlab qolgandi.

Turnirning so'nggi kuni eng og'ir (+100 kg) vaznli polvonimiz Alisher Yusupov ham shohsupaga ko'tarildi. U o'z faoliyatida ilk bor "Masters" seriyasiga kiruvchi musobaqada sovrindor bo'ldi. Hamyurtimiz bronza medal uchun

kechgan bellashuvda mo'g'ulistonlik Sensensengel Odxuni mag'lubiyatga uchratdi.

MVSM vakillari Davlat Bobonov (-90 kg) va Muzaffarbek To'raboyevning (-100 kg) Isroilda omadi chopmadi. Bobonov chorak finalda braziliyalik Rafael Makedoga, jahon chempioni Muzaffarbek To'raboyev esa chorak final ostonasida BAA vakili Jafar Kostoyevga imkoniyatni boy berdi. Shu tariqa dzyudo bo'yicha O'zbekiston terma jamoasi Isroilda o'tkazilgan yilning eng so'nggi musobaqasini bitta kumush va 2 ta bronza medal bilan yakunlab, umumjamoa hisobida 58 ta davlat orasida 12-o'rinni egalladi.

2022-YILGI MAVSUMNING YAKUNIY REYTING JADVALI

Isroilda poyoniga yetgan "World Judo Masters" musobaqasidan so'ng Xalqaro dzyudo federatsiyasi (IJF) tomonidan yakuniy natijalar sarhisob qilinib, sportchilarning yangilangan reyting jadvali e'lon qilindi. Qaysidir ma'noda musobaqa bilan 2022-yilgi mavsumga yakun yasilib, dzyudochilarning "Parij – 2024" sari odimiga nazar solindi.

Poytaxtimizda o'tkazilgan jahon chempionatida g'olib chiqib, yil davomida bir qator xalqaro turnirlarda ham sovrindor bo'lgani bois yaqin ta'qibchilarini katta farq bilan ortda qoldirgan MVSM vakili, iste'dodli sportchimiz Davlat Bobonov 6 298 ochko bilan IJF reytingidagi yetakchiligini ham saqlab qoldi. E'tiborlisi MVSM vakili o'tgan yilgi mavsumni ham IJF reyting jadvalida 1-o'rinni egallash bilan yakunlagandi. O'zbekiston dzyudo federatsiyasi matbuot xizmatining xabariga ko'ra, yil yakunidagi peshqadamlik uchun Davlat Bobonov endi Xalqaro dzyudo federatsiyasi tomonidan 10 ming AQSh dollari miqdoridagi pul mukofoti bilan ham taqdirlanadi.

Mahoratli dzyudochimimiz, MVSM vakili Diyora Keldiyorova ham yil davomida bir qator musobaqalarda muvaffaqiyatli qatnashib, IJF reyting jadvalida -52 kg vazn toifasida peshqadamga aylangandi. Lekin so'nggi hisoblarga ko'ra, u 5 858 reyting ochkosi bilan 2023-yilni to'rtinchi pog'onada qarshilaydigan bo'ldi. -81 kg vaznli polvonimiz Sharofiddin Boltaboyev 5-o'rinda qayd etilgan bo'lsa, "World Judo Masters" turniri sovrindorlari Alisher Yusupov va Murodjon Yo'ldoshev Xalqaro dzyudo federatsiyasi reyting jadvalida sezilarli darajada yuqorilagan, ya'ni 6 va 7-o'rinda joylashgan. Sportni rivojlantirish vazirligi tomonidan 2022-yilgi mavsum yakunlari bo'yicha mamlakatimizda "Yilning eng yaxshi erkak sportchisi" sifatida e'tirof etilgan MVSM vakili Muzaffarbek To'raboyev esa IJF reytingida 9-qatordan joy olgan.



DZYUDOCHILARIMIZNING IJF REYTING JADVALIDA EGALLAB TURGAN O'RNI

Erkaklar

-60 kg:

1. Yung Vei Yang (*Xitoy Taipeyi*) – 7 045 ochko
24. Dilshodbek Baratov (*O'zbekiston, MVSM*) – 1 873

-66 kg:

1. Denis Viyeru (*Moldova*) – 7 484 ochko
11. Sardor Nurullayev (*O'zbekiston*) – 2 792
22. Muhriddin Tilovov (*O'zbekiston, MVSM*) – 1 784

-73 kg:

1. Lasha Shavdatuashvili (*Gruziya*) – 6 615 ochko
7. Murodjon Yo'ldoshev (*O'zbekiston*) – 3 671
11. Shahram Ahadov (*O'zbekiston*) – 2 920
12. Obidxon No'monov (*O'zbekiston*) – 2 808
22. Hikmatilloh To'rayev (*O'zbekiston, MVSM*) – 1 964

-81 kg:

1. Tato Grigalashvili (*Gruziya*) – 9 296 ochko
5. Sharofiddin Boltaboyev (*O'zbekiston*) – 4 013

-90 kg:

1. Davlat Bobonov (*O'zbekiston, MVSM*) – 6 298 ochko
2. Sanshiro Murao (*Yaponiya*) – 5 800

-100 kg:

1. Iliya Sulamanidze (*Gruziya*) – 5 752 ochko
9. Muzaffarbek To'raboyev (*O'zbekiston, MVSM*) – 3 598
27. Otabek To'raboyev (*O'zbekiston, MVSM*) – 1 532

+100 kg:

1. Temur Rahimov (*Tojikiston*) – 6 024 ochko
6. Alisher Yusupov (*O'zbekiston*) – 4 201
21. Shohruh Baxtiyurov (*O'zbekiston, MVSM*) – 2 310
39. Bekmurod Oltiboyev (*O'zbekiston*) – 926

Ayollar:

-52 kg:

1. Chelsi Jayls (*Buyuk Britaniya*) – 6 190 ochko
4. Diyora Keldiyorova (*O'zbekiston, MVSM*) – 5 858
29. Sita Qadamboyeva (*O'zbekiston*) – 1 287

-70 kg:

1. Barbara Matich (*Xorvatiya*) – 6 720 ochko
17. Gulnoza Matniyazova (*O'zbekiston, MVSM*) – 2 826

O'zbekiston Qurolli Kuchlarining 31 yilligiga

ХУРЛИК ФИДОЙИЛАРИ

(воқеий қисса)



(Давоми. Боши ўтган сонларда)

– Яхши, унда ҳеч нарса билмагандек дадил қадам ташланг, шахтингизни пасайтирманг! – қўл остидагиларга буюрди тўда амири. – Шу ерлик овчилар деб ўйласа, мақсадимизга осонроқ эришамиз.

– Хавотир олманг, амир, орамизда ханжарбозликда тенгсиз Назир бор, – «Абдуллох»га қўл остидаги жаллодларнинг ноёб «қобилияти»ни эслатди Саид. – Бир деганда учаласини тинчита олади.

Фақат уларни гап билан чалғитиб, яқинроқ боришимиз керак. – Унда Назир тезда ханжарларини тайёрласин! – буйруқ берди тўдабоши. – Вақтимиз чекланган, тез ҳаракат қилишимиз керак!..

Босқинчиларнинг кийим-боши, ҳаракатини кузатиб, нохуш ҳолатни ҳис қилган тажрибали ўрмончилар каттаси уларнинг устига тап тортмай бостириб келаётган босқинчиларни элик метрлар чамаси узоқликда қуролни ўқталиб тўхтатди.

– Ўша ерда тўхта ҳамманг, бир қадам боссанг, отаман! Кимсанлар?

– Ҳорманглар, сизларга ўхшаган одамлармиз, рухсат берсангиз танишамиз, – Темур акани тинчлантирган бўлди Саид.

– Ўша ерда турларинг дедим, милтиқларимиз ўқланган, отишга шай. Туришингиздан бу ерлик эмассиз, бундай автоматлар билан тоғларда оддий овчилар юрмайди. Сенларни...

– От аҳмоқларни! – буюрди зарби танг «Абдуллох».

Ўрмончининг гапи тугамай, террорчилар автомати ишга тушди. Хушёр турган Темур ака ҳам қуролидан ўқ отишга улгурди. Бир дақиқа ичида уч ўрмончи ерга қулади.

– Амир... амир яраланди, – жангарилардан бирининг таҳликали овози ўй-хаёли ўрмончиларда бўлган тўда калхатларини саросимага солиб қўйди.

– Амир, бу... бу қандай бўлди? – Саид яраланган қорнини маҳкам чангаллаганича, ранги оқариб турган «Абдуллох»га қандай сўз айтишни билмасди. – Тезда, тезда чодир тиклаш керак, амирга жой тайёрланг! – вазоҳат ила йигитларга буюрди у. – Халил, сенинг тиббиётдан хабаринг бор, амирга биринчи ёрдам кўрсат!

Саиднинг гапи тугар-тугамас, ўрмончилар жасади устида турган жангарилардан бири:

– Пастдаги сой бўйида мана бу ўлакларнинг яна битта шериги бор экан, қочяпти у! – деди қичқариб.

– От, отмайсанми, аҳмоқ! – унга буйруқ бериш асносида ўрмончи Исаев томон автомат ўқларини ёғдирди шериги.

Юқорида фожиа содир бўлаётганини англаб, қарахт турган Исаев босқинчилар унга қарата ўқ узгандагина уни ҳам шерикларининг қисмати қутаётганини тушуниб етди. Яраланган қўлини кўксига босганча орқа-олдига қарамай қочди, сой қирғоғидаги бутазор ичида кўздан ғойиб бўлди.

– Қочиб қолди аблаҳ! – ўзини қўярга жой тополмай, оёғи остидаги ўт-ўланларни тепиб сўкинди жангари. – Аммо яраланган бўлиши керак, узоққа кетолмайди, – дея Саидга юзланди.

– Уни тутиш шарт, йўқса, ҳамма ҳаракатимиз зое кетади, – бир зумда бўлиб ўтган тўс-тўполондан асаблари таранг тортилган Саид жангариларга буйруқ беришдан аввал амирга юзланишни лозим топди.

Бу пайтда Халил исмли жангари чала ярим тикланган чодир ичида амирнинг сочма ўқ яралаган қорнини кўздан кечирмоқда эди.

– Амирга зудлик билан жарроҳ керак, – Саидга ҳолатни тушунтирди у. – Оғриқ қолдирувчи укол қилдим. Ўқларни олиб ташлаб, муолажа қилмасан бўлмайди.

– Нима гап, Саид, кимни тутиш керак даяпанс? – «Ўнг қўли»га дардини ичига ютган қўйи термилди «Абдуллох».

– Пастдаги сой бўйида ўрмончиларнинг шериги бор экан, йигитларнинг ўқиға чап бериб қочибди итэмган. Ярадор бўлиши ҳам мумкин. Изн берсангиз...

– Аҳволимни кўриб турибсан, гуруҳга ўзинг бошчилик қилиб тур, вазиятга қараб, керакли буйруқни бер. Менга ҳам врач керак, улуг вазифани бажармай ўлишга ҳаққим йўқ.

– Албатта, амир, сизнинг бошчилигингизда илкимиздаги мақсадга иншооллоҳ эришамиз. Йигитларни олиб, пастга ўзим тушаман.

– Йўқ, сен олдимда қол! Йигитларга харита бер, ҳаммаси ҳар жиҳатдан тажрибали, ўзлари эплайди...

Саид тўда босқинчиларини атрофига йиғди.

– Олдимизда иккита асосий вазифа турибди, – вазиятдан чиқиш учун ҳамма нарсага шай турган қашқирларга шошилиш буйруқ берди у. – Биринчиси амирнинг ҳаётини асраб қолиш учун жарроҳ керак, иккинчиси қочган ўрмончини тутиш. Ҳозир тўрт киши шу иш билан шуғулланади. Йўналиш битта, яъни ўрмончини Янгиобод шаҳарчасига кетаётгани аниқ. У шаҳарчага етиб борса, исковичларга хабар беради, уни йўлда йўқ қилишингиз шарт! Шаҳарчадан жарроҳ олиб қайтасиз. Муаммо бўлса, вазиятга қараб ҳал қилинг, улуг ишда Аллоҳнинг ўзи қўлласин!..

Тўрт нафар жаллод қўлида харита билан худди маймунлардек пастга қараб ҳаракатланди.

– Вазифани бажаришга энг сара, ишончли йигитларни юбордим, кўнглингиз тўқ бўлсин, – «Абдуллох»га ахборот берди Саид. – Қуёш ботмай жарроҳни етказиб келади. Даволагандан сўнг дачага бориб жойлашамиз. Керак бўлса врач олдингизда туради. Кейин уни ҳам даф қиламиз.

– Ўрмончиларни... – гапи охирига етмай тўдабошини қаттиқ йўтал тутди. Қорнидаги оғриқдан ихраб юборди. Тепасида турган Халил ёрдам беришга шошилди.

– Қочган ўрмончи бизникилардан қутула олмайди, – тўдабоши бир оз ўзига келгач, уни хавотирга солган муаммо ҳақида тўхталди Саид. – Ортидан тушган йигитлар рациядан хабар берди, яраланган экан, ўтларда қон излари қолган. Кўрганларидан шокка тушган ярадор узоққа кетолмайди. Ўлганларини йўқ қилиш учун эса йигитлар ўра қазияпти, майитларни ҳозир кўмиб ташлайди. Атроф сокин, соқчилар қўйилган, ҳаммаси жойида...

Ўрмончи Исаев дов-дарахтлар оралаб бир муддат югургач, боши айланиб, кўзи тина бошлади. Қуюқ буталар орасига ҳолсиз чўқди. Кўксига босиб келаётган ярадор кафтига юзини бўжмайтирган қўйи аста разм солди. Жиддийгина жароҳатланган. Кийимлари қўлидан оққан қонни етарлича шимиб олган бўлса-да, кафтини қаттиқ босиб келгани сабаб қон тўхтаган. У қалтираган қўйи чўнтагини пайпаслаб, дастрўмолини олди ва кафтини боғлашга тушди. Бир хаёли унинг орқасидан тушган босқинчиларда. Агар сўқмоқ бўйлаб қочганида анча йўлни босиб қўйган бўларди, аммо анави соқоллилар ундан анча эпчилроқ, етиб олиши аниқ. Ҳа, бу жойларнинг пасту баланд, тирқишу тешигини Исаевчалик биладиган ўрмончи йўқ. Узоқ йиллардан буён тоғ ўрмонларида умри ўтган «қочоқ»нинг жонини тоғларнинг ўт-ўлану буталари қоплаган, кўздан яширин пана жойлари асраб қолиши мумкин.

Исаев вужудини қулоққа айлантириб, бир нафас тек қотди, оёқ товушлари йўқ, жим-житлик. Яна озгина ҳаракат қилса, пана жой бор, ўша ерга беркинади. Айни дамда уни соқолли ваҳшийларнинг ким эканлиги, дўстларининг жонига қасд қилгани, навбатдаги қотилликларнинг олдини олиш учун улар ҳақида керакли жойга тезроқ хабар бериш қайғуси эмас, балки жонини асраш дарди қийнарди.

У туртина-туртина буталар оралаб йўлга тушди. Ана, у беркинмоқчи бўлган жой. Сўқмоқдан ўн метрлар чамаси узоқликда. Шу ерга жойлашиб олса бўлгани, у ён-атрофни, сўқмоқдан ўтаётганларни кузатиши мумкин, бироқ уни ҳеч қандай кўз илғай олмайди. Шу ерда қоронғи тушгунча ўтириб, босқинчилар таъқибидан қутулса бўлгани, кейин ўзи билган йўл орқали шаҳарчага кириб боради.

Кўп фурсат ўтмай, ҳаллослаб келаётган жангарилар кўзга ташланди. Иблислар қадам ташлаш баробарида атрофни синчиклаб кузатиб келарди. Аксиға олиб, чопар отдек югуриб келаётган босқинчилар қуролларини шайлаганча Исаев турган яширин «қўрғон» тўғрисиға келиб тўхтади. Овозсиз, қўл орқали нималарнидир бир-бирига имо килди, ўт-ўлан, дов-дарахтларни кўздан кечирди. Муздек тер босган қўйи қотиб ўтирган Исаевнинг юраги бўғзида ура бошлади. Бундай пайтда ўзи истамаган ва кутмаган ҳолда овоз чиқариб юбориш ҳеч гап эмас. Қотиллар эса ниманидир сезгандек жойидан жилмасди...

(Давоми бор)

Зулфия ЮНУСОВА,
«Vatanparvar»

Hikoya

**Ғолиб кўрган тушини
эслашга уринди.
Формали кишилар,
кичкинтой бола,
одамлар орасидаги
синглиси Ойчехра...
Синглиси ёдига
тушгани ҳамон
ўрнидан ирғиб турди.
Дориларини ичириши
керак. Ҳовлига чиқиб,
муздек сувга
юз-қўлларини обдан ювди.
Синглисининг хонасига
тоза-озода бўлиб кириш
керак, доктор тайинлаган.**

Оппоқ тўшакка сингиб кетгандек
ётган қизалоқ акасини кўриб
жилмайди.

– Уйғонибсиз... Ухлаб қолсангиз
яхши эди, дориларни ичмас эдим.
– Тезроқ тузалгинг
келмаяптими? – сўради Ғолиб
шишадаги дорининг қанча
қолганини текширар экан.
– Жудаям хоҳлайман, айниқса,
сочларим тезроқ ўссайди.
– Буларни ичиб бўлганингдан
кейин тувагингни тўкиб келаман.
– Аям тозалала кетдилар,
кийимларимни ҳам
алмаштирганлар.

Қизалоқ тақдирга тан бергандек
жилмайишга ҳаракат қилиб
дориларини ичди. Лаблари
қийшайиб кетаётган сингилчасига
аканинг раҳми келди. Тақир
бошини авайлабгина силади,
мақтаб кўйди:

– Ақлли синглим бор-да,
дориларни йиғламасдан ичади.
– Акажон, мен яхши қиз, а?
– Сен дунёдаги энг яхши қизсан.
– Яхши қиз эканлигимни
Қорбобо ҳам билладими?
– Албатта, биллади-да!
– Пушти қуёнча совға қилса эди.
Яна...

– Нима яна?
– Сизга янги велосипед,
деразамизнинг қаршисида,
менга кўриниб турадиган жойда
чироқлари ёнадиган арча, кўп
меҳмонлар, аям ҳеч йиғламасалар,
дадам ҳам тезроқ қайтсалар...

– Ўх-хўй, – Ғолиб кулиб
юборди. – Қорбобо сенга пушти
қуёнчангни олиб келиши аниқ,
чунки сен яхши қизчасан.
Меҳмонлар келишмайди, сени
авайлашади. Аям... Дадам сен
тезроқ тузалиб кетишинг учун
узокларга ишлагани кетдилар.
Келдилар... Бир кун албатта
келдилар. Ҳадемай аям ҳам
ишдан қайтадилар. Сен ақлли
қиз бўлиб ўтир, хўпми? Совуқда
мақтаб кўмирхонасини саришталаб
қўйишга кетдилар, таътилда
болалар йўқлигида қилиш керак,
дедилар. Бугун Азим новвойга
ёрдам бераман, кеч қолсам, аям
хавотир олмайсинлар, а? Ҳозир
печкага бироз кўмир ташлайман,
Ойчехра деган чиройли қизалоқ
совқотиб қолмаслиги керак.

– Сочим бўлмаса ҳам
чиройлиман, а?
– Ҳа, сен ҳаммадан чиройлисан,
яхшисан.

Қизалоқ кемшик тишларини
кўрсатиб мамнун илжайди.

Ғолиб ҳовлидан кўчага чиқар
экан, дарвоза олдидан синглисига
шодон қўл силкиди. У Ойчехранинг
дераза ойнасига қапишгудек бўлиб
кузатиб турганини қарамаса ҳам
билар эди. Эски велосипедини
шалдиратиб Каттақишлоққа қараб
йўл олди. Новвойхонага келасолиб,
хонтахта вазифасини ўтайдиган
эски сандиқни очиб, рюкзагини
пайпаслаб кўрди, кўнгли хотиржам
тортиди. Тандирхонадан бош
чиқарган уста кулимсираб сўради:

– Жойида турибдимикан?
Бола хижолат тортиди.
– Уста бово, синглим

дориларини йиғламасдан ичса,
Қорбобо унга пушти қуёнча олиб
келишига ишонади. У ҳаётда
мўъжизалар бор деб ўйлайди.
Қорбободан сўраган нарсаларини
эшитинг-а...

Бола кулиб, синглиси сўраган
нарсаларни айтар экан, устанинг
кўзларига чўккан мунгни
пайқамади.

Сочларига эрта оқ оралаган
ўрта ёшлардаги уста ўн бир яшар
фидокор ака қаршисида бир зум
ўйга толди ва сўради:

– Ўзи қалай, яхши томонга
ўзгариш борми?

– Билмайман, кундан-кун озиб
кетяпти, – деди бола овози хиёл
титраб.

– Ҳаммаси яхши бўлади, ҳали
кўрмагандек бўлиб кетади. Ўтириб
чой ичиб ол, Ҳалқачи қишлоғига
Аваз милисаникига йигирмата
патир олиб борасан, велосипедда
кетма, ҳаво совуқ анчагина,
эшак аравага ортиб бераман.
Кичик йўл билан борасан, ҳам
яқин, машиналар юрмай қўйган.
Қишлоққа кирганингда, катта йўл
ёқасидаги яшил дарвоза, топишга
қийналмайсан.

Ғолиб илгари ҳам эшак аравада
нон етказиб берарди. У кичкина
бўлганидан хонадон эгалари уни
ҳеч қуруқ чиқаришмасди. Пушти
қуёнча учун пулни ҳам шу тариқа
йиққан эди.

Ҳалқачи йўли тор бўлса ҳам
текис эди. Яланғоч дарахтлар
ортдан қишлоқ уйлари кўрина
бошлади. Шу пайт аллақандай
овоздан бола чўчиб кетди. Йиғими,
ингрокми, англаб бўлмасди. Юрак
ютиб овоз келган томонга қаради.
Эшагини тўхтатиб, қулоқ солди.
Ий-йи, кучук бола фингшияпти-ку,
аравадан сакраб тушиб яқиндагина
қазиб тозаланган ариқ ёқасига
келди. Ариқ ичида... Совуқдан
кўкариб кетган, уст-боши лой
уч-тўрт ёшлардаги бола йиғига
ҳам ҳоли келмай кўлмақда ўтириб
қолган, қоп-қора кучукбола унинг
оёқлари устида қалтираганча
фингширди.

Ғолиб жон ҳолатда ариққа
тушди. Болани кўтариб чиқолмади.
Кичкинтой шалаббо кийимларда
янада оғирлашган, кўрқув, совуқ
ўз ишини қилган эди. Болани катта
ариқ ичидан чиқаргунча ўзи ҳам
обдан лойга беланди. Ариқда сув
йўқ, аммо ҳар ер-ҳар ерида яқинда
ёққан ҳўл қордан кичик ҳалқоблар
қолган эди. Болани бир амаллаб

чиқарганидан кейин уни қаерга
олиб боришни билмай бир зум
келган йўлидан ортга қаради. Анча
йўл босган экан. Олдинга юриш
керак, қишлоқ уйлари кўриниб
турибди, олдинга, олдинга!

Болакайни аравага жойлаш
ҳам азоб бўлди. У йиғламас,
караҳт ҳолда кўзлари юмилиб
борарди. Ўлиб қолса-я! Ғолиб
кўрқиб кетди. Кўрткасини ечди-да,
болани яхшилаб ўради ва эшагини
қистади. Қишлоққа яқинлашиб
қолганида овозининг борича
бақирди: «Ёрдам, ёрдам, ёрдам
беринг...» Ҳовлилардан чиққан
одамлар болага қараб югуришди.

– Ариқдан топиб олдим, ёрдам
беринг, ўлиб қолади, овози
чиқмаяпти, – деди биринчи етиб
келган йигитга қараб кичкинтойни
кўрсатар экан.

– Ий-йи, бу Аваз аканинг ўғли-
ку, боягина қидириб, у ёқдан бу
ёққа югуриб юргандилар.

Йигит болани кўтариб, очик
турган яшил дарвозага кириб
кетди. Унга бошқалар эргашди.
Бирпасда «Тез ёрдам» машинаси
етиб келди. Ғолиб ҳам ичкарига
кирди. Унга ҳеч ким эътибор
бермади. Нонларни айвондаги стол
устида қолдирди. Кўчага чиқиб, яна
қайтиб кирди. Кучукболани унутган
экан, остонада гиламча устида
қолдирди ва индамай чиқиб кетди.

Совуқда дилдираб бир аҳволда
қайтиб келган болани кўриб,
устанинг жон-пони чиқиб кетди:
– Нима бўлди, биров урдими?
Қайси номарднинг иши? Айт, бориб
жонини суғуриб келаман!..

Устанинг ёрдамчиси қайноқ
чойни мажбур ичирди. Бироз ўзига
келиб, йўлдаги воқеани айтиб
берди. Пул беришмаганини айтган
эди, уста қўл силтади.

– Беради, ташвишланма,
Аваз ўзини йигирмата патирга
тенг қиладиган эркак эмас. Кел,
мана бу овқатни еб ол. Бугунги
қаҳрамонлигинга ҳеч нарса тенг
келмайди. Уйингга бориб дам ол,
аяннга ёрдамлаш, синглинг ҳам
сени кўрса, севинади. Кўрткангни
қолдириб келибсан-ку, шамоллаб
қолма тагин. Телефон қиламан,
уйингга олиб келиб беради.

Ғолиб «чарчаганим йўқ»,
дейишига қарамасдан уста унга
уйига кетишга изн берди. Болани
новвойнинг укаси машинасида
кузатиб қўйди. Бежиз эмас экан.
Кетар экан, машинанинг орқасидан
бир нечта сумка озик-овқатни
дарвоза ёнига қўйди ва «бу
новвойхонамиздан сизларга байрам
совғаси», деди. Буларни кўриб,
аяси кўзларига ёш олди, узундан-
узун дуо қилди.

Тезгина кеч ҳам тушди.
Мўъжизалар юз бергани йўқ.
Синглиси хориб, уйқуга кетди.
Ғолиб пушти қуёнчани Ойчехра
уйғонганида илк кез кўзи
тушадиган жойга қўйди. Она-бола
қизалоқнинг бошида ўтирдилар,
чунки оғриқлардан уйқуси ҳам
узокқа бормасди. Ярим соатлар
ўтиб, инжиқланиб уйғонган қизалоқ
пушти қуёнчани кўриб, севиниб



кетди, бағрига босди. Шу пайт
ташқаридан биров овоз берди. Она-
бола чиқдилар.

Бироздан кейин ҳовли қувончли
ғовурга тўлди. Қизалоқ дераза
ойнасига қапишгудек бўлиб
ташқарига қаради. У ерда формали
кишилар табассум билан акасини
қўлини катталар каби навбатма-
навбат қисиб қўйдилар. Шарлар
тақилган велосипедни кўриб,
қизалоқ хасталигини ҳам унутди,
нозик қўлчаларини кўксига босиб,
кўкка термилганича, «Раҳмат сенга,
Қорбобо!» деди.

Меҳмонлар кетди. Она-бола
ҳаяжон билан уйга кирди. Аёл
кўз ёшлари юзини ювиб боласини
бағрига босди: «Менинг қаҳрамон
болам», дея суйиб эркалади.
Ариқдан топилган бола ростдан
ҳам Аваз милисанинг ўғли экан.
Ҳамма меҳмонлар билан андармон
бўлиб қолибди. Унинг йўқлигини
сезиб қолганларида бола ариққа
тушиб кетган кучукбола ортидан
тушиб, чиқолмай қолган ва йўл
тополмай йиғлаб, тентиб, овози
ҳам эшитилмайдиган жойга бориб
қолган эди. Дарров милисага хабар
берилибди. Бола кутилмаган жойдан
топилди. Гўдак ўзига келганида
халоскорни қидириш бошланибди.
Новвойдан вазиятни билган
боланинг отаси шу кунгидея янги
велосипед ва кийим-кечаклар олиб,
сафдошлари билан қаҳрамоннинг
уйига йўқлаб келибдилар.

Она-болалар алла-паллагача
ухлай олмадилар. Сўхбатлари тугай
демасди. Уч йилдан бери илк кечани
севинч, ҳаяжонлар билан бедор
ўтказмоқда эдилар. Бу кеча қизалоқ
ҳам осуда эди, хархаша қилмади.
Ғолибнинг кўзига синглисининг
боши аввалгидек тақир эмас,
майсалаётгандек кўринди. У яна
ухлаб қолди, юзида ҳорғин табассум
бор эди. Саҳарга яқин кўзлари
эндигина илинганида Ойчехранинг
қийқириғидан уйғониб кетдилар. У
деразага қапишиб олган, ташқарида
эса баланд арча ял-ял ёнарди...

– Дадам, дадажоним келдилар,
дадам Қорбобо бўлиб келдилар.

Кутилмаганда кириб келган
улкан ҚУВОНЧ – отага учовлари ҳам
бараварига отилдилар.

Бу янги йилнинг илк тонги эди,
Ойчехра оғриқларсиз қаршилаган
илк янги йил тонги!

Мўъжизалар бўлмади, деб ким
айтди сизга?! Мўъжизалар бўлади,
ишонинг!

Bugunning gapi



Bolalarga xos shunday xususiyat bor – yaqinlari tomonidan nimagaki cheklov qo'yilsa, o'sha narsa ularning qiziqishlarini yanada orttiradi.

Boshqacha aytganda, “Bunday qilma!” deyilgan ishni bir marta bo'lsa ham qilib ko'rishga urinadi.



“MEHMONI”

KERAKMI?!

Bu holat har yili Yangi yil bayrami arafasida takrorlanadi. Pirotexnika vositalarini qonunga xilof ravishda ishlab chiqarish, olib kirish, tashish, saqlash va sotish taqiqlanganligiga, mahallalarda, maktablarda, xonadonlarda olib borilgan targ'ibot ishlariga qaramay “paqildoq”lar savdosi avj oladi. Bolalar, o'smirlar, ba'zida esa kap-katta odamlar ham bir lahzalik “zavq” ortidan kulfatga yo'liqadilar, ko'pchiligi og'ir jarohat olib, nogiron bo'lib qoladi.

Ayrim shaxslar qonunchilikda taqiqlangan normalarni turli yo'llar orqali buzib, Yangi yil yaqinlashgani sayin pirotexnika vositalari savdosini mo'may daromadli biznesga aylantirib oladi. Bunday kimsalarning qilmishi tufayli hamma Yangi yil bayramiga tayyorgarlik ko'rib, shod-xurram yurganda, qo'li, yuzi, ko'zi jarohat olgan farzandlarini ko'tarib, shifoxonaga yugurgan ota-onalarga duch kelganda yuragimiz og'riydi.

Davlat bojxona qo'mitasining statistik ma'lumotlariga ko'ra, yurtimizda shu yilning o'tgan davri mobaynida 5,5 milliard so'mlik pirotexnika vositalari noqonuniy muomaladan olib qo'yilgan. Qayd etilishicha, yil boshidan buyon o'tkazilgan tezkor tadbirlar natijasida pirotexnika buyumlarining noqonuniy muomalasiga doir 123 ta bojxona qonun buzilishi holatlari aniqlangan. Ushbu pirotexnika buyumlarining miqdori o'tgan yilning shu davriga nisbatan 62 foizga oshgan.

Jumladan, Farg'onada 2 million 137 ming dona, Toshkent shahrida 1 million 514 ming dona, Qashqadaryoda 920 ming dona, Sirdaryoda 825,9 ming dona, Surxondaryoda 791,3 ming dona, Andijonda 519 ming dona pirotexnika buyumlari noqonuniy aylanmasining oldi olingan. Aniqlangan bojxona

qonun buzilishlarining 24 tasi bo'yicha jinoyat ishlari qo'zg'atilgan. Bojxona organlarining surishtiruvchilari tomonidan 30 ta holat bo'yicha tergovga qadar tekshiruv harakatlari olib borilmoqda.

Masalaning yana bir tomoni e'tiborimizni tortdi. Gap shundaki, bugun ijtimoiy tarmoq foydalanuvchilarining soni kundan kunga ortib bormoqda. Internet tarmoqlari orqali onlayn savdo ham kishilarga ko'plab qulaylik tug'dirmoqda. Kimdir mahsulotini sotsa, yana kimdir o'ziga keraklisini xarid qiladi. Biz tilga olgan pirotexnika savdosi ham aynan ijtimoiy tarmoqlar orqali bemalol targ'ib qilinmoqda: “Qani kimga qaysi pirotexnikadan? Bizda hammasi kafolatlangan! 100 foiz ishonchli!”

Qiziq, savdosi taqiqlangan mahsulotni ochiq-oydin manzil-u bog'lanish uchun telefon raqamlarigacha yozib qo'yilgan telegram ijtimoiy tarmoqlaridagi kanallarning a'zolari hatto yuz ming atrofida. Bu kabi holatlarga duch kelganimizdan so'ng mas'ullarning fikrini bilish maqsadida Davlat bojxona qo'mitasining jamoatchilik va ommaviy axborot vositalari bilan aloqalar bo'limi boshlig'i vazifasini bajaruvchisi Husan Tangriyevga yuzlandik.

– Bu masala haqiqatdan judayam dolzarb. Chunki bu kabi holatlarni biz ham ko'rib, guvohi bo'lib turibmiz. Bu haqda tezkor guruhlarimizga ijtimoiy tarmoqlardagi guruh yoki kanallar haqida xabar beriladi. Nazorat tartibida, ya'ni shartli xaridor sifatida ish tutilib, ularning

faoliyatiga chek qo'yib kelinmoqda. Shu o'rinda yurtdoshlarimizdan mana shunday xabar va e'lonlarga duch kelishsa, Davlat bojxona qo'mitasiga murojaat qilishlarini so'radik. Bayram arafasida pirotexnika vositalaridan foydalanib, o'zingiz, yaqinlaringiz va yurtdoshlarimiz tinchligini, salomatligini xavfqa qo'ymasligingizni so'raymiz.

Mazkur mavzuni yoritish jarayonida ijtimoiy tarmoqlarda kichik so'rovnomma o'tkazdik. Foydalanuvchilar auditoriyasiga “Yangi yil bayramini pirotexnika vositalari bilan o'tkazasizmi?” savolini bergandik. 400 nafarga yaqin ovoz yig'ilgan bo'lib, shundan 58 foiz “Yo'q, foydalanmayman. Qiziq emas”, degan javobni berishgan bo'lsa, qolgan 42 foiz qatnashchi esa “Ha, foydalanaman. Zavqiroq o'tadi”, deya javob qaytarishgan.

Xulosa qiladigan bo'lsak, talab bor joyda, albatta, taklif bo'ladi. Pirotexnika vositalarini sotib olish uchun jamiyatimizda xohish bor ekan, uning qonunda taqiqlanganiga qaramay sotishga urinishlar kuzatilaveradi. Qachonki, biz ongli ravishda inson hayoti va salomatligi uchun mana shunday xavf tug'diruvchi vositalarni sotib olishdan o'zimizni tiyolsak, bunday ko'ngilsiz holatlar kamayishi tayin.

Dilmurod TILOVOV,
O'zbekiston jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universiteti talabasi

Sayyor qabul

MUAMMOLAR ATROFLICHA O'RGANILDI

Yurtimizda joriy etilgan xalq bilan muloqot qilishning xalqchil tizimi, eng avvalo, yurtdoshlarimizning konstitutsiyaviy huquq va erkinliklarini, manfaatlarini ta'minlash bilan birga Yangi O'zbekistonda ilgari surilayotgan "inson – jamiyat – davlat" tamoyilini ro'yobga chiqarishga, davlat organlari bilan xalq o'rtasida ochiq muloqotni yo'lga qo'yishga qaratilgani bilan ahamiyatlidir. Shunday ezgulikka xizmat qiluvchi tadbirlar Xorazm viloyatining Urganch shahri va Shovot tumanida joylashgan Mudofaa vazirligiga qarashli harbiy qism va muassasalarda sayyor qabul shaklida o'tkazildi.

Harbiy xizmatchilar va oila a'zolarining huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish, muammolarini o'rganish, bir so'z bilan aytganda, ularning ijtimoiy himoyasini ta'minlash maqsadida tashkil etilgan mazkur tadbirda Shimoli-g'arbiy harbiy okrug qo'shinlari qo'mondoni polkovnik Farhodjon Shermatov hamda harbiy okrug boshqaruv apparatining mansabdor shaxslari ishtirok etdi.

Sayyor qabulga kelgan har bir insonning dard-u tashvishi, muammo va ehtiyojlari atroflicha

o'rganildi. Jumladan, qabul davomida 2 ta murojaat harbiy xizmatchilarning turmush o'rtoqlarini egallagan mutaxassisligi bo'yicha ishga joylashtirish, 25 ta murojaat imtiyozli ipoteka kreditlari asosida belgilangan tartibda uy-joy olish va 6 ta murojaat moliya masalalari bo'yicha bo'ldi. 13 ta murojaat shu kunning o'zida yechimini topib, harbiy xizmatchilar va oila a'zolarining roziligiga erishildi.

Tadbir davomida ko'pchilikni yillar davomida qiynab kelgan muammoli masalalarga yechim topish, harbiy xizmatchilarning oila a'zolarini ish bilan



ta'minlash hamda farzandlarini maktabgacha ta'lim tashkiloti hamda umumta'lim muassasalariga joylashtirishda yordam ko'rsatish bo'yicha qaror qabul qilinish, tegishli ko'rsatmalar berildi.

Mahorat

HARBIY SPORTCHILAR

BELLASHUVI

O'zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi qo'shinlarida harbiy-amaliy va olimpiya sport turlarini rivojlantirish, harbiy xizmatchilar o'rtasida sog'lom turmush tarzini targ'ib etish, eng sara sportchilarni tanlab olish va ularni rag'batlantirish maqsadida Shimoli-g'arbiy harbiy okrug qo'shinlarida "Armiya sporti haftaligi" joriy etilib, umumarmiya sport musobaqalari o'tkazildi.

150 nafardan ziyod sportga mehr qo'ygan harbiy xizmatchini o'zida birlashtirgan umumarmiya sport musobaqalari doirasida ishtirokchilar armiya biatloni, tosh ko'tarish, armiya qo'l jangi, kurash, harbiy-sport kompleksi ko'pkurashi, ofitserlar uchkurashi, otish sporti, pichoq uloqtirish, yengil atletika va badminton bo'yicha o'zaro kuch sinashdi.

Musobaqalar Nukus garnizoni markaziy sport majmuasi hamda "Nukus" umumqo'shin poligoni hududida o'tkazildi. Har bir bellashuvni tajribali hakamlar hay'ati odilona baholab bordi.

"Armiya biatloni" musobaqasida ishtirokchilar tekis va notekis relyefga ega bo'lgan maxsus yo'lakchali marshrut bo'yicha kross yugurishi davomida turli usullarda sport miltig'idan o'q otish va granatani 50 metr uzoqlikdagi nishonga uloqtirish mashqlarini bajardi.

"Tosh ko'tarish" bahsida ishtirokchilar sakkiz vazn toifasida bellashdi. Ular musobaqalar davomida dast ko'tarish va siltab ko'tarish usulida 32 kg.li toshlarni o'zlariga bo'ysundirdi.

Sharq yakkakurashlari, boks va milliy kurash elementlarini o'z ichiga olgan "Armiya qo'l jangi" bellashuvi ham qizg'in bahs-munozaralarga sabab bo'ldi. Unda har bir jamoadan sakkiz nafar ishtirokchi sakkizta vaznda bellashib, kuch va matonatni namoyish etdi.

"Harbiy-sport kompleksi ko'pkurashi" musobaqasida esa harbiy xizmatchilar 100 metrga yugurish, turnikda tortilish, 3 km masofani bosib o'tish va yagona to'siqlar yo'ligidan o'tish bo'yicha kuch sinashgan bo'lsa, "Ofitserlar uch kurashi" bellashuvida pistoletdan o'q otish, erkin usulda 3 km.ga suzish, 1-2 km masofaga yugurish me'yorlarini bajarishdi.



Shuningdek, sportsevar harbiylar "Otish sporti", "Pichoq uloqtirish", "Kurash", "Yengil atletika", "Badminton" musobaqalarida ham faol ishtirok etib, metin iroda, matonat va g'alabaga bo'lgan kuchli ishtiyosini namoyon etishdi.

10 ta musobaqa yakuni bo'yicha ishtirokchilar jami 140 ta nominatsiya bo'yicha yakkalik va jamoaviy tarzda kubok, medal, diplom hamda faxriy yorliq bilan taqdirlandi.

Shimoli-g'arbiy harbiy okrug matbuot xizmati

Kelajagimiz egalari

Ko'p yillardan beri maktabda o'quvchilarga saboq berib kelaman. Dars jarayonida o'g'il-qizlarga faqat o'qish-yozishni o'rgatish bilan kifoyalanmayman, balki shu asnoda ularni milliy qadriyatlar, urf-odatlar, qadriyatlar va an'analarga chuqur hurmat ruhida tarbiyalashga harakat qilaman.

VATAN HIMOYACHILARI MAKTABDA SHAKLLANADI

Vatan himoyachilari kuni yurtimizda har yili katta tantana qilinishi ezgu an'anaga aylandi. Eng ahamiyatlisi, milliy armiyamiz qudratini, sharaffi kasb shon-shuhratini tarannum qiluvchi bu bayram yoshlar qalbidagi ezgu maqsadlarning bo'y ko'rsatishiga sabab bo'lmoqda. Bunga yaqinlashib kelayotgan Vatan himoyachilari kuni munosabati bilan 1- va 2-sinf o'quvchilari o'rtasida o'tkazilgan "Men ham Vatan himoyachisiman!" mavzusidagi ochiq dars misol bo'ladi.

Darsda o'quvchilarning erkin ishtiroki ta'minlandi. Ular o'zlari tayyorlab kelgan mavzu bo'yicha chiqish qildi. Kimdir oila, kimdir Vatan haqida so'zladi. Menga manzur bo'lgani, jamoaviy chiqishlarda oila, Vatan, farovonlik tushunchalari tinchlik bilan chambarchas bog'liqligi, tinchligimiz asosi esa qudratli Qurolli Kuchlar ekanligi juda chiroyli tarzda ko'rsatib berildi. Bolajonlar o'z maqsadlari haqida so'zlaganda, "Men kelajakda harbiy bo'lib, Vatanimni qo'riqlayman" kalomini o'zgacha mehr bilan aytishdi. O'quvchilarning ezgulik yo'g'rilgan orzu-niyatlaridan ko'nglim osmon qadar yuksaldi. Shu lahzalarda xayolimdan o'tgan ushbu fikr shuurimni yoritdi: "Vatanimiz kelajagi ishonchli qo'llarda!"

Nasiba QORIYEVA,
Yashnobod tumanidagi 339-umumta'lim maktabi o'qituvchisi

Mudofaaga ko'maklashuvchi "Vatanparvar" tashkilotlarida

Yoshlarimizning Vatanga muhabbatli, jasur va doyyurak insonlar bo'lib yetishishlarida joylarda faoliyat yuritayotgan "Vatanparvar" tashkilotlarining o'rni beqiyos. O'zbekiston Respublikasi mudofaasiga ko'maklashuvchi "Vatanparvar" tashkilotining Xorazm viloyati kengashi tasarrufidagi Yangiariq tumani o'quv sport-texnika klubi jamoasi ham o'z faoliyatini zamon talablari asosida tashkil etib, yurt ravnaqi va uning kamoloti yo'lida samarali ishlarni amalga oshirmoqda. Tashkilot faoliyatini bugungi kun talabi darajasida takomillashtirish doirasida 2022-yilda ham yoshlarni ijtimoiy, foydali hamda ommaviy vatanparvarlik ishlariga jalb etish maqsadida bir qator tadbirlarni bajardilar.

– Yakunlanayotgan yilda tumanimiz yoshlari respublika va viloyat miqyosidagi sport musobaqalarida muvaffaqiyatli ishtirok etib, sovrinli o'rnlarni qo'lga kiritdi, – deydi O'STK boshlig'i Shonazar Razzoqov. – Hozirgi kunda yosh sportchilar sportning texnik va amaliy turlaridan "Havo miltig'idan o'q otish", "Karting" va "Yozgi biatlon" kabi muhim turlari bo'yicha yuqori natijalarga erishmoqda. Joriy yilda tashkilot katta samaradorlikka erishdi. Haydovchilar tayyorlash bo'yicha yaxshi natijalar ko'rsatilib, "B", "BC", "CE" toifali haydovchilar tayyorlash rejasi muvaffaqiyatli uddalandi. Bunday natijalarga erishishda tashkilotning o'qituvchi va amaliy boshqarishni o'rgatuvchi-ustalarining ham tinimsiz mehnati, qolaversa, yetarli shart-sharoitlar, zamonaviy rusumdagi o'quv avtomobillari bilan ta'minlanganligi muhim omil bo'ldi.

Bir so'z bilan aytganda, yakunlanayotgan yilda yangiariqlik vatanparvarchilar yurt ravnaqiga o'z hissalarini qo'sha oldi. Tilagimiz, ana shunday jo'shqinlik Sizni kirib kelayotgan Yangi yilda ham tark etmasin, aziz "Vatanparvar"chilar!

YURT RAVNAQIGA MUNOSIB HISSA



Fursatdan foydalanib, "Vatanparvar" tashkiloti Yangiariq tumani o'quv sport-texnika klubi jamoasi mamlakatimiz tinchligi uchun matonat bilan xizmat qilayotgan harbiy xizmatchilarni, "Vatanparvar" tashkiloti xodimlari hamda barcha yurtdoshlarimizni kirib kelayotgan Yangi – 2023-yil bilan chin dildan muborakbod etadi.

Yangi yilingiz qutlug' bo'lsin, muhtaram yurtdoshlar!

Yangi yil tabrigi

O'zbekiston Respublikasi mudofaasiga ko'maklashuvchi "Vatanparvar" tashkilotining Xorazm viloyati kengashi jamoasi barcha yurtdoshlarimizni, mamlakatimiz tinchligi va chegaralarimiz daxlsizligi uchun sabot bilan xizmat qilayotgan yurt posbonlarini, mard, yuksak matonat va jasoratga ega yosh avlodni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, ularda el-yurt taqdiriga daxldorlik tuyg'usini yuksaltirish yo'lida faoliyat olib borayotgan "Vatanparvar" tashkiloti xodimlarini Yangi yil bayrami bilan samimiy tabriklaydi.

Yangi yil barchangizga oilaviy tinchlik-xotirjamlik, sihat-salomatlik, baxt va omad olib kelsin!

Shu aziz Vatanga, xalqimiz xizmatiga doimo shay bo'lib, ozod va obod yurt istiqboli uchun yashash va xizmat qilishda barchangizga zafar yor bo'lsin!

Ekskursiya

O'QUVCHILAR
AKADEMIYADA

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining Mudofaa va xavfsizlik masalalari qo'mitasi raisining xatiga asosan, "Vatan sarhadlarini himoya qilish borasida Mudofaa vazirligi, Chegara qo'shinlari, Bojxona xizmati, Ichki ishlar organlari va mahallalar o'zaro hamkorligining asosiy yo'nalishlari: tajriba, samaralar va istiqboldagi vazifalar" mavzusida o'tkazilgan davra suhbatini yakuni bo'yicha bir qator tavsiyalar belgilangan edi. Xususan, mamlakatimizning davlat chegarasiga tutash hududlarida joylashgan maktablar va mahallalar yoshlari bilan oliy harbiy ta'lim muassasalari kursantlari va o'quvchi-yoshlar uchrashuvini tashkillashtirish hamda ular bilan targ'ibot-tashviqot ishlarini o'tkazishga doir takliflar bildirilgan.

"Vatanparvarlik kuni" doirasida Toshkent tumani chegara oldi hududida joylashgan 15-umumta'lim maktabi o'quvchilari Qurolli Kuchlar akademiyasiga tashrif buyurdi.

Ekskursiya chog'ida yoshlar DXX Chegara qo'shinlari kadrlarini tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirish fakulteti faoliyati bilan yaqindan tanishdi. Akademiya o'quv xonalari, muzeyi, kutubxona, o'qotar qurollar va jangovar texnikalar trenajyorlari maktab o'quvchilarida katta qiziqish uyg'otdi.

Polkovnik X. XAITOV, fakultet boshlig'i.
B. SOBIROV, katta o'qituvchi

E'tibor

USTOZIDAN
XABAR OLGAN
KAM BO'LMAS

"Sodiq xizmatlari uchun" medali sohibi podpolkovnik Farrux Mamanazarov har safar ona qishlog'iga kelganida, o'zi o'qigan Qarshi tumanidagi 43-umumta'lim maktabiga kirib o'tishni kanda qilmaydi. Ustozlaridan xabar olish bahonasida o'quvchilar bilan uchrashuvlar o'tkazib, ularga o'z kasbining sharaflari va mas'uliyatli jihatlari haqida to'lib-toshib gapirib beradi. Bu esa yosh avlod qalbida ona Vatanga muhabbat tuyg'ularining shakllanishiga xizmat qiladi.

– Farruxjonni boshlang'ich sinfda o'qitganman, – deydi faxriy pedagog Suyun Allayorov. – O'quvchilik paytida biror marta tarbiyasi, o'qishi bilan bog'liq muammoga duch kelmaganman. U doim sinfning eng faol va a'lochi o'quvchilari safida bo'lgan. Yaqinda uyimga kelib, hol-ahvol so'rab ketdi. Bundan boshim ko'klarga yetdi. Biz – o'qituvchilar, mahallamiz ahli Farrux Mamanazarovdek o'quvchimiz bilan haqli ravishda faxrlanamiz. Keyinchalik Farruxga havas qilib, harbiylik kasbiga mehr qo'ygan o'quvchilar talaygina.

– Men Farruxga ona tili va adabiyot fanidan dars berganman. Ota-onasining badiiy adabiyotga o'zgacha qiziqishi sababli bo'lsa kerak, u darslarimni o'zlashtirishda doim birinchilardan bo'lgan. Fanga oid kechalar bo'ladimi, ma'rifiy tadbirlarmi, barchasida ijodiy ishlari va sahna ko'rinishlari bilan ishtirok etardi, – deydi Ne'mat Jabborov.

Podpolkovnik Farrux Mamanazarov o'quvchilar bilan dildan suhbatlar davomida fidokorona mehnat doim munosib taqdirlanishi, maqsad sari astoydil qilingan sa'y-harakatlar besamar ketmasligini, ustozlaridan xabar olib turuvchilar hayotda kam bo'lmasligini qayta-qayta uqtiradi.

Sh. JABBOROVA

Yong'in xavfsizligi

Qisqa tutashuv – normal ish holatidagi har qanday ko'zda tutilmagan kichik qarshilik orqali fazalar orasidagi tutashuv. Yerga yotqizilgan neytral tizimda esa bir yoki bir nechta fazalar tutashuvining yerga (yoki nol simiga) o'tishidir.

ELEKTR
QURILMALARIDAN
FOYDALANISHDA...

Elektr tarmog'idagi qisqa tutashuv tarmoqdagi umumiy qarshilikning tez kamayishiga (kamayish darajasi tarmoqdagi qisqa tutashuv nuqtasining o'rniga bog'liq) olib keladi. Bunda normal holatdagi tokka nisbatan tarmoq toklari oshib ketadi. Oqibatda tarmoqdagi kuchlanish kamayib, qisqa tutashuv o'rnida baland bo'ladi.

Qisqa tutashuvning asosiy sabablari: ochiq izolyatsiyalanmagan elektr simlaridan shamol ta'sirida va har xil predmetlar orqali fazalar va faza bilan neytral simlarning ulanib qolishi; elektr simlarida, kabel, mashina va apparatlarda himoya (izolyatsiya) qatlamining atrof-muhit ta'sirida buzilishi; himoya qatlamining eskirishi; kuchlanish oshishi; yashinning to'g'ridan to'g'ri tushishi; elektr moslamalariga qarovsizlik va mexanik shikastlanish kabilardir.

Qisqa tutashuvdan muhofazalanish uchun:

– qisqa tutashuv ro'y berishiga yo'l qo'ymaslik kerak;
– xavfli toklar ta'sirini cheklash, ya'ni himoya apparatlarini (saqlagich, avtomat) qo'llash.

Bundan tashqari, elektr qurilmalarini to'g'ri tanlash va montaj qilish juda muhim. Taqsimlov qalqonlari, mashinalar, apparatlar, qurilmalar, sim va kabellar atrof-muhit, elektr tokining qiymati va turi, kuchlanish, yuklanish quvvatiga mos kelishi kerak.

Zamonaviy elektr tizimida qisqa tutashuv toklari 10 000 amperga yetadi. Bunday toklar qisqa vaqt ichida katta hajmda issiqlik ajratib chiqaradi va haroratni yuqori darajaga yetkazib, yonadigan himoya qatlamini alangalatadi. Metall o'tkazgichlarni eritib, atrof-muhitga quvvati katta bo'lgan uchqunlarni tarqatib, yengil alanganuvchilarning o't olishiga va portlashiga olib keladi. Issiqlik ta'siridan tashqari qisqa tutashuv katta mexanik

ta'siriga ega. O'tgazgichlar mustahkamligi kam bo'lsa, ularni qotirib turuvchilar buzilishiga olib keladi.

Qisqa tutashuv xavfini kamaytirish, yo'qotish uchun himoya apparatlari o'rnatiladi. Ular himoya qatlami alanganishi, o'tkazgichlardagi tok o'tkazuvchi tolalar erishining oldini oladi. Buning uchun tezkor ishlaydigan avtomatlar (o'chirish vaqti 0,008-0,005 soniya) va eruvchi saqlovchilar ishlatiladi. Kuchlanishni kamaytirish uchun qisqa tutashuv

paytida generatorlar elektrostansiyalarda kuchlanish avtomat ravishda me'yorlar (ANR) vositasi bilan jihazlanadi.

Yuklanishning asosiy sabablari:
– simlar kesim yuzasi ishchi tokka to'g'ri kelmasligi;
– sim kesim yuzasini hisobga olmasdan, ko'zda tutilmagan tok qabul qiluvchilarni bir tarmoqqa parallel ulash;
– tarmoqdagi kuchlanishning me'yordan pasayishi;
– atrof-muhit haroratining ko'tarilishi va boshqalar.

Katta o'tish qarshiligining oldini olish uchun sim va kabellarni ulash joylari, apparatlar kontakt qismlari mustahkamligini (boltli, kavsharlash, payvandlash, presslash, qisqichlar orqali) ta'minlash; zang, qurum bosgan kontaktlarni tozalash; alyumin va mis tolali simlarni ulashda maxsus qisqichlar qo'llash; mis, latun, bronzadan bo'lgan kontaktlarni oksidlanishdan saqlash uchun ularning ustki qismini yuqqa simob, kumush bilan qoplash; sim tolalarini ulash joylarini atrof-muhit ta'siridan himoyalash uchun izolyatsiyalash; kuygan kontaktlarni almashtirish va h.k. Bundan tashqari, ekspluatatsiya qilish jarayonida ulangan joylarni (kontaktlarni) doimiy nazorat qilib turish lozim.

Kapitan Sardor ERBEKOV,
Toshkent garnizoni yong'in nazorati
inspeksiyasi boshlig'i



Bilasizmi?



Sehrli ertak kabi ko'ngillarni oqlikka burkovchi, barchani shodlantiruvchi Yangi yil bayramini nishonlash asli qachondan boshlangani xususida hech o'ylab ko'rganmisiz? Dunyoning aksariyat mamlakatlarida yangi yil 31-dekabrda 1-yanvarga o'tar kechasi nishonlanadi. 1-yanvar – Grigoryan kalendari bo'yicha yilning ilk kuni.

Ayni paytda uyda, ko'chalarda, ko'ngilochar maskanlarda yangi yildan nishona berib, ko'zni quvnatuvchi archalar o'rnatilgan. Lekin nega yangi yil arafasida aynan archa yasatiladi? Sababi qadim zamonlarda yangi yil ko'proq janubiy mamlakatlarda nishonlangan va bayram ramzi palma daraxti bo'lgan. Shuning uchun janubda palma "archa" vazifasini bajargan. Boshqa o'lkalarda palma bo'lmagani sabab yil bo'yi yam-yashil turuvchi daraxt – archa tanlab olingan. Yana bir afsonaga qaraganda esa archani yangi yil ramzi sifatida belgilash Germaniyada boshlangan. Qadimgi davrlarda odamlar birgalikda yilning so'nggi kuni eng katta daraxt – archani qidirganlar va uning atrofida bayram qilib, bu daraxtga o'zlari uchun sevimli bo'lgan narsalarini olib ketganlar. Bundan maqsad keyingi yil yanada mo'l-ko'l bo'lsin, deya niyat qilingan. Shu tariqa archa yasatish an'anaga aylanib borgan. Hozirda dunyoning deyarli barcha yerida Yangi yil nishonlanadi va archa uning ramzi sanaladi.

Archa yasatish deyarli barcha mamlakatlarda urfga aylangan bo'lsa-da, ularning Yangi yilni nishonlash an'analari bir-biridan farqlanadi. Ulardan eng noodatylari **Ispaniyada** Yangi yil kechasi soat millari 12 ga bong urganda, 12 dona uzum yeyish odat tusiga kirgan. Ularning fikricha, kim 12 dona uzum yesa, kelayotgan yilning 12 oyi ham ular uchun omadli o'tadi.

Kubada esa Yangi yil juda boshqacha ruhda o'tadi. Bu kunda barcha kubaliklar uylaridagi biror idishga to'ldirib suv solib qo'yadilar hamda soat millari 12 ga bong urganda, idishdagi suvni derazadan uloqtiradilar. Suv uloqtirilishiga sabab Yangi yil ham suv kabi pok bo'lsin, deya niyat qiladilar. Ba'zi insonlar bayramni ho'l kiyimda nishonlaydilar.

Yaponiyada Yangi yil kuni barchaga qo'ng'iroq tarqatiladi. Bu qo'ng'iroq 108 marta bong urish xususiyatiga ega. Ular insondagi eng ko'p uchraydigan 6 illat: hasad, ochko'zlik, ahmoqlik, qat'iyatsizlik, mulohazasizlik hamda qahrning ramzi sanaladi. Yaponlar olti illatning har birida 18 ta xususiyat yashirin bo'ladi, deb hisoblaydilar. Ana shunda 108 raqami nima uchun paydo bo'lganini anglash mumkin ekan. Yana shunisi qiziqki, Yaponiyada Yangi yil kechasi har bir xonadonda uchta daraxtning novdasi bo'lishi shart:

bambuk novdasi – daraxt kabi farzandlar tezroq voyaga yetsinlar; olxo'ri – uy bekasining yordamchilari ko'proq bo'lsin; qarag'ay – har bir oila a'zosi bu daraxt kabi uzoq umr ko'rsin, degan niyatda ularni uylariga olib keladilar.

Anor Gretsiyada Yangi yil kechasining asosiy mahsuloti hisoblanadi. Greklar bu kunda Yangi yilni qarshilash maqsadida oila a'zolari bilan birgalikda hovlilariga chiqadilar va anorni devorga qarata otadilar. Agar anor donachalari har qayoqqa sochilib ketsa, bu – kelayotgan yil ular uchun omadli bo'lishidan darak.

Hindiston bu bayramni ham turli ranglardan foydalanish orqali o'tkazadi. Shimoliy Hindiston aholisi bu bayramni oq, pushti, qizil va siyohranglarsiz tasavvur eta olmaydilar. Shu ranglardan foydalanib atrofini bezaydilar. Markaziy Hindiston aholisi esa har bir binoni turli-tuman ranglarga bo'yaydilar hamda binolar ustiga olovrang bayroq olib chiqadilar. G'arbdagilari Yangi yil kechasi uylarining tomiga kichik idishda olov yoqib qo'yadilar. Bolalarga sovg'a ulashish jarayoni ham bu yerda o'zgacha bo'lib, erta tongda patnida sovg'a sifatida shirinliklar ulashiladi.

Irlandiyaning mehmondo'st ekanini ularning Yangi yil bayramidan ham bilib olish mumkin. Sababi bu kun kechasi har bir xonadon o'z eshigini katta qilib ochib qo'yadi va istalgan mehmon kirib, Yangi yilni shu yerda kutib olishi mumkin, bu inson begona bo'lsa-da, irlandlar uchun Yangi yilni ochiq eshik bilan kutib olish an'anadek gap.

Shotlandiyada esa bu kechada smola (*qatron*) to'ldirilgan katta-katta bochkalar ko'chalarga dumalatib yuboriladi. Ularning fikricha, bu jarayon eski yilni butunlay yondirib yuborish ramzi ekan. Eski yildan hech narsa qolmagandagina Yangi yilga keng yo'l ochiladi, deb hisoblaydilar. Soat millari 12 ga yaqinlashganda esa shotlandlar mehmondorchilik qiladilar. Har bir kelgan mehmon xonadonga bir bo'lak bo'lsa-da ko'mir olib kelishi urfga aylangan. Sababi Shotlandiya uylarining har birida uyni isitish moslamasi sifatida kamindan foydalaniladi. Ko'mir bu xonadondagi olov uzoq yillar davomida o'chmasligi belgisidir.

Vengriyada esa Yangi yil taomnomasi juda o'zgacha. Yangi yil kuni hech qaysi xonadon parranda go'shtidan taom tayyorlamaydi. Kirib kelayotgan Yangi yilda omad qush kabi uchib ketmasligi uchun ularning taomnomasida parranda go'shti taqiqlanadi.

Yangi yil o'zi bilan yangi marralarni olib keluvchi bayram. Albatta, bu bayram uchun barcha o'zgacha tarzda tayyorgarlik ko'rish turgan gap. Yangi yil qanday nishonlanmasin, turli joylarda turfa xillikni kasb etmasin, barchaning Yangi yildan umidi katta: muhimi, eski yil o'zi bilan xafagarchiliklar-u arazlarni olib ketsin-da, Yangi yil o'zi bilan yangi muvaffaqiyat-u omadlarni olib kelsin!



Nodira ABDUSATTOROVA tayyorladi.

DRABBL

HAYKAL

Buxoroda qadim imoratlar ko'p.

Bu ko'hna shahar ko'chalarini xayolchan kezarkanman, bir to'da sayyohlar boshi bulutga chulg'angan minoraga qarab turishganini ko'rdim. Ularga keksa bir ilmiy xodim minora tarixini tushuntiryapti. Quloq soldim.

– Yetti yuz yil bo'lgan bu minoraning qurilganiga.

Sayyohlar hayrat bilan yoqalarini ushlaydi. Men bu xil yodgorliklarni ko'p ko'rganman. Armanistondagi to'rt ming yillik Dvin xarobalari, Kegart qal'alarini, necha ming yillar muqaddam yozilib bizga yetib kelguncha toshga aylangan kitoblarni ko'rganman. Shularni odam yaratgan, ularda odam qo'lining izi bor. Buxoro ko'chalarini kezarkanman, juda ko'p xotiralar xayolimdan o'tadi. Asrlar qa'rida qolib ketgan jang-u jadallarni ko'rgandek, qilich-qalqonlarning jarangini eshitgandek bo'laman. Bularning barini tarix shamollari uchirib ketdi. Odamlarning xotiridan yulib ketdi. Ammo ko'hna devorda qolgan besh barmoq izi hali ham ko'rinib turibdi. Bu ming yillar qa'rida yo'q bo'lib ketgan odam qo'lining izi. Shu azamat binoga g'isht tergan me'mor qo'lining izi.

Odam qo'ligina odamga abadiy haykal qo'yishiga ana o'shanda ishonganman.

Said AHMAD

KUYUKLAR

Urush. Novvoyxonada ishlab qaytgan akalarning tuguni beliga bog'liqligini ko'rib, singillarning ko'zida parchalangan umid astasekin tomchilay boshladi. Aka aybli boshini egdi:

– Kechiringlar, bugun birorta ham non kuymadi...

ARJUMANBEGIM

@Vatanparvargazetasi_bot
"Vatanparvar" birlashgan tahririyati
bilan bog'lanish uchun telegram bot



SHU SONNING
ELEKTRON SHAKLI

VATANPARVAR

MUASSIS

O'ZBEKISTON
RESPUBLIKASI
MUDOFAA
VAZIRLIGI

www.mudofaa.uz

Tahririyat kengashi:

polkovnik Hamdam Qarshiyev
polkovnik Otabek Yuldashev
polkovnik Alisher Boboxonov
Maqsud AbilovTahririyatga kelgan qo'lyozmalar
taqriz qilinmaydi va mualliflarga
qaytarilmaydi.Mudofaa vazirligi Axborot va ommaviy
kommunikatsiyalar departamenti
– "Vatanparvar" birlashgan
tahririyatining kompyuter markazida
sahifalandi.

Bosh muharrir:

podpolkovnik Ahror Ochilov

ISSN 2010-5541

Gazeta O'zbekiston Matbuot
va axborot agentligida 2008-yil
6-iyunda 0535 raqami bilan
ro'yxatga olingan.

Telefonlar:

kotibiyat: 71 260-36-50
buxgalteriya: 71 260-35-20
yuridik bo'lim: 71 260-29-41
faks: 71 260-32-29

Navbatchi: kapitan Aziz Norqulov

Sahifalovchi: Nodirabegim Ne'matova

Musahhih: Zebo Sariyeva

Buyurtma: F-1205

Hajmi: 6 bosma taboq

Bichimi: A3

Adadi: 29 420 nusxa

Bosishga topshirish vaqti: 14:00

Topshirildi: 14:30

Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani
rasmilashitirgan tashkilot javobgar.
Mualliflar fikri tahririyat nuqtayi nazaridan
farqlanishi mumkin.

Gazeta juma kuni chiqadi.

Gazeta 1992-yilning 24-iyunidan chiqq
boshlagan.

Nashr ko'rsatkichi: 114.

Bahosi: kelishilgan narxda.

"Sharq" nashriyat-matbaa aksiyadorlik
kompaniyasida chop etildi.
Bosmaxona manzili: Toshkent shahri,
Buyuk Turon ko'chasi, 41-uy.

1 2 3 4 5 6

Manzilimiz:

100164, Toshkent, Universitet ko'chasi, 1-uy.